Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi; Zot va tizimlarning pilla mahsuldorligi ko‘p jihatdan tashqi muhitning omillariga bog‘liq. Ularning fenotipda namoyon bo‘lishida ipak qurtlariga berilayotgan tut barglarini miqdori, hajmi va gigrotermik sharoitlar katta ahamiyatga ega. Taqiyatosh tumanida tájriybadagi ipak qurti zotlaridan 1 uruǵ qo‘yrma olinib, 3 ta variant tuzildi. Har bir variant 3 takrorlanishda 100 nafardan donadan uruǵ sanab, jami 900 dona uruǵ olinib, jonlanish foizda aniqlandi. Tadqiqot olib barish usilida ko‘rsatilgan oq pilla o‘rovchi ipak qurtlari uchun ishlab shiqarilgan usuldagi agrotexnik meyordagi, xona temperaturasi 24 C namlik 70 foizda ushlab, jonlantirildi. Ipak qurti qurtini jonlantirish davrida ularning inkubatsiya davri 10-11 kunni tashkil etib, asosiy jonlanish 1-2 kun davom etganligini ko‘rish mumkin. Ipak qurtlarini jonlanishdan oldin chiqadigan xabarchi qurtlar, ushtala zotda ham chiqqanligin ko‘rishimiz mumkin. Qurtlarning chiqishi bo‘lsa birinchi variantda birinchi kunda o‘rtacha 49 foiz ikkinchi kunda 37 foiz uchunchi kunda 10 foiz jonlanganin ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi variantda qurtlarning chiqishi birinchi kuni 51 foiz ikkinchi kuni 36 foiz uchinchi kuni 6 foiz jonlanganin ko‘rishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytganimizki bu zotlarning jonlanishi asosan 1-2 kun davom etib 96-97 foizga qadar urug‘dan qurtlar chiqadi. Uchunchi zotda qurtlarning chiqishi birinchi kuni 76 foiz ikkinchi kuni 19 foiz uchinchi kuni 3 foiz jonlanganin ko‘rishimiz mumkin. Yakunlab aytadigan bo‘lsak bu zotlarning jonlanishi asosan 1-2 kun davom etib 96 foizga qadar urug‘dan qurtlar chiqadi. Biz tájriba uchastkalarini 1-2 kunlari jonlangan qurtlar seyomnikdan ko‘tarib olinib, boqildi. Birinchi va ikkinchi variantdagi urug‘larimiznin erkak va urg‘ochilarini bemalol ayirib olsak ham bo‘ladi va yana pusht urug‘larniham ayirib olish juda oson chunki ularga ultra nurlar tasir ettirib urg‘ochilari qoramtir, erkaklari oq yoki gungurt hisoblanadi va ular qurtlik davridaham maskali va maskasiz bo‘lib erkak urg‘ochisi bir biridan farq qiladi.

1-jadval

Tut ipak qurti zotlarining urug‘larining jonlanish ko‘rsatkichlari

Variantlar	Inkubatsiya davri (кун)	Xabarchi qurtlarning miqdori (%)	Har kunlik qurt chiqish miqdori (%)			Jonlanmagan qurtlar soni	Jami jonlangan qurtlar
			birinchi	ikkinchi	uchinchi		
1-variant S-12	10	2	49	37,0	8	4	96,5
2-variant S-10	10-11	2	51	36,	6	5	95,0
3-variyant Yapon zoti	9-10	1	76	19	2	2	98,5

Olingan natijalarga asosan, xorijdan keltirilgan tut ipak qurti zotlari haqiqatdan ham o‘zlarining yuqori jonlanuvchanligini namoyon etishdi. Buni ipak qurtlarini jonlanish foizini tahlil qilganimizda yaqqol ko‘rish mumkin.

Jonlanishi yuqori bo‘lgan quymalar keyinchalik qurtlik davrining yakunida yuqori hayotchanlik, pillaning og‘irligi va pilla qobig‘ining qalinligida o‘zlarining sermahsulliklarini namoyon qildilar.

2025-yil baxor mavzusida pilla mahsuldorligi taxlil qilingandan so‘ng har bir zot pillalaridan 200-300 donadan pilla namunalari olindi.

Ipak qurtlaridan mo‘l va sifatli pilla olish uchun tashqi sharoit omillarini o‘rganish bilan bir qatorda ularni boqish sharoitda bajarilayotgan agrotexnik qoidalarni ipak qurtining zoti yoki duragayining mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Tut ipak qurti zotlarining biologik ko‘rsatkichlari (2025-y)

Variantlar	Qurtlik davri, sutka	Qurtning hayotchanligi	Pilla og‘irligi gr.	Pilla qobig‘i og‘irligi.	Navli pillalar %	Ipakchanlik
1-variant S-10	27,0	98,0	1,9	0,465	93,0	25,0
2-variant S-12	27,0	97,0	1,8	0,445	90,0	24,3
3-variant Yapon (киёсловчи)	25,0	95,0	1,6	0,480	96,0	25,6

Har uchala zotda ham qurtlarning biologik ko‘rsatkichlari yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Ipak qurti zotlari sermahsulligi muhim ko‘rsatkich bo‘lib, o‘zining ipakchanlikda ham o‘z ifodasini topdi. Bu ko‘rsatkich tirik pillalarda 24-26% ni tashkil qildi. Pilla kobig‘ini og‘irligi 0,465-0,480 grammdan iborat bo‘ldi.

Ipak qurti zotlari o‘zlarining yuqori hayotchanligi 98% 1 dona pilla massasini 1,6-1,9 grammni tashkil qilishi bilan 1 qutidan olinadigan pilla hosili 70-75 kilogramm bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Qo‘shimcha qilib yana shuni aytish joyizki Yapon zoti o‘zining barg yeyishini o‘ta yuqori iqtisod qilishi bilan ajralib turdi. Katta yoshlarida Yapon zotiga barg faqat kuniga 3 mahal berib borildi chunki ular bargni juda kam va sekin yeyishi bilan ajralib turdi. S-10 va S-12 zotlariga esa kuniga 5-6 marta va undan ko‘p marta barg solishga to‘g‘ri keldi.

Tajriba davomida qurtlarning o‘sishi, rivojlanishi va kasalliklarga chalinishi ham kuzatib borildi. Qurtlar barcha variantlarda 3-yoshgacha yaxshi va sog‘lom rivojlanib bordi. 4-yoshdan boshlab, asosan bakterial va zamburug‘ kasalliklariga duchor bo‘lishi ma’lum bo‘ldi.

Tajribalarni o‘tkazish uchun tut ipak qurtining S-10, S-12, Yapon zotlari olindi va ulardan (S-10 x S-12), (S-12 x S-10), (Yapon x S-10), (Yapon x S-12), (S-10 x Yapon), (S-12 x Yapon) va Yapon zot va duragaylari juftlashtirilib reproduktiv ko‘rsatgichlari aniqlanib qayd etildi.

Hozirgi davrda olingan tuxum qo‘ymalari 25^0 C harorat va 60% namlik sharoitida estivatsiya davrini o‘tayapti. (16-rasm)



16-rasm Estivatsiyadagi urug‘lar.

Xulosa qilib shuni aytamizki, chet eldan olib kelinayotgan duragay ipak qurtlarini boqish davrida harorat 25-26ºC va namlik 65-70% da boqilsa o‘zlarining mahsuldorlik darajasini aniq ko‘rsata oladi. Biz bu duragaylarning mahsuldorlik ko‘rsatgichlarini aniqlash uchun urug‘larning bir qismini shu yili yozda jonlantirib boqishni qolgan yarimini kelgusi bahorgacha qishlashga qo‘yishni rejalashtirdik. Biz ishonamizki biz yaratgan zot va duragaylar kelgusida ipakchilik tarmog‘ini yanada mustaxkamlaydi va pilla maxsulotini sifatini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov N. “Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi” Toshkent. “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2014. B.370.
2. Larkina E.A., A.B. Yakubov A.B., G.E.Abdrimova G.E., Umbetbaeva G.B., “ Tut ipak qurti partenoklonlaridan sanoat duragaylarini yaratishda foydalanish”// “Yangi O‘zbekistonda ipakchilik sohasining dolzarb muommolari va ularning inovatsion texnologiyalariga asoslangan dolzarb muommolari vaularning ilimiy yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilimiy-texnik konferensiyasiya materiallari-Toshkent, 2025. 169-171-b.
3. Navruzov S. Tojiev E. Iz Орыт работы некоторых yaponskix shelkovodov. // Shelk. – Toshkent, 1993. №1-2. S.37-44.
4. Nasirillaev B.U., Turg‘unboeva N.A., G‘iyosova K.C., “Tut Ipak qurti yangi Inbred tizimlarining pilla mahsuldorligi va kalibri” // “Yangi O‘zbekistonda ipakchilik sohasining dolzarb muommolari va ularning inovatsion texnologiyalariga asoslangan dolzarb muommolari vaularning ilimiy yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilimiy-texnik konferensiyasiya materiallari-Toshkent, 2025. 319-322-b.
5. Nasirillayev B.U., Bobomurodov M. Ipak qurtining mavjud zotlarini texnologik xususiyatlarini oshirish uchun mos selektsion tizimlar. //Agro ilm. -Toshkent, 2016. - №1. 25-26-b. aydilar (U.N.Nasirillayev, B.U.Nasirillayev, 2019.)
6. Umarov Sh. R., Oripov O. O. “O‘zbekiston sharoiti uchun yuqori mahsuldor toza duragay tut ipak qurti zotlarini yaratishining ilimiy asoslari”// ”Yangi O‘zbekistonda ipakchilik sohasining dolzarb muommolari va ularning inovatsion texnologiyalariga asoslangan dolzarb muommolari vaularning ilimiy yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilimiy-texnik konferensiyasiya materiallari-Toshkent, 2025. 369-372-b.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

ПРОБЛЕМЫ ЗЕЛЕНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

[1]Имамов Э.З. [1]Каримов Х.Н. [2]Имамов А.Э.
[1]Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий (ТУИТ), Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан,
ORCID: 0009-0007-4952-1842; E-mail: erkinimamov@mail.ru
ORCID: 0000-0002-0849-2092; E-mail: karimov@tuit.uz
[2]Академии МВД Республики Узбекистан, https://ORCID: 0000-0002-1543-2944;
E-mail: azizimamov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17066931

Аннотация. *Показано, что солнечная энергетика как одна из её видов имеет весьма своеобразное отличие от других известных видов энергетики тем, что производит постоянный ток. Отмечается, что подобное свойство солнечной энергетики вызывает необходимость существенного пересмотра учебных планов, программ дисциплин и программ прохождения производственных практик, а также юридические положения о взаимодействии учебного заведения и производства, проблемах трудоустройства и организации производственных практик.*
Ключевые слова: *Электричество, постоянный ток, переменный ток.*

Abstract. *It is shown that solar energy as one of its types has a very specific difference from other known types of energy in that it produces direct current. It is noted that such a property of solar energy causes the need for a significant revision of curricula, programs of disciplines and programs for industrial practices, as well as legal provisions on the interaction of educational institutions and production, problems of employment and the organization of industrial practices.*
Key words: *Electricity, direct current, alternating current.*

Annotatsiya. *Quyosh energetikasining boshqa ma'lum energetika turlaridan o'ziga xos jihati shundaki, u doimiy elektr toki ishlab chiqaradi. Ushbu xususiyat, o'z navbatida, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari hamda ishlab chiqarish amaliyotlari mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy-me'yoriy asoslarini, kadrlarni ishga joylashtirish hamda ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni ham yangicha yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirishi ko'rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Elektr, doimiy tok, o‘zgaruvchan tok.*

Введение. Трансформация системы подготовки кадров на основе укрепления взаимной интеграции образования, науки и производства является насущной задачей высшего образования, в особенности, высшего технического образования. Непрерывно растущие в мире технические и технологические инновации требуют от профессионального образования оперативного совершенствования соответствующего цикла учебного процесса. В этом плане в современном мире наиболее богатой на инновации отраслью является зеленая энергетика и в частности, солнечная энергетика, его технологии и принципы функционирования.

Солнечная энергетика имеет весьма своеобразное отличие от основных известных видов энергетики: гидро и термо энергетика, атомная и ветровая энергетика (ГЭС, ТЭЦ, АЭС, ВЭС). Все они вырабатывают переменный ток. За десятилетия их потребления люди привыкли и даже не предполагают, что может быть какие-то альтернативы к переменному току. Но в 21 веке произошло серьезные технические, технологические изменения и новшества в сфере энергетики. Главное среди них является развитие солнечной энергетики, обладающая принципиальным отличием от других применяемых энергетик: она производит постоянный ток.

Вся наша мировая практика потребления электричества в 20 столетии опиралась на электрические устройства, работающие на переменном токе. Естественно, такая тенденция не могла не отразиться и в системе подготовки инженерно-технических кадров, в которой до сих пор, в основном, электрические проблемы сводились к работе устройств, работающих на переменном токе и к проблемам его эксплуатации.

Та же ситуация была и вузах. Там вопросы рассмотрения проблем переменного электричества касались в основном области фундаментальных научных знаний (например, знаний по физики) и специальных дисциплин по изучению и эксплуатацию различных специфических электрических приборов и устройств. Кроме того она коснулась также проблемы организации и проведения производственных практик будущих инженеров-энергетиков.

В силу сказанного выше, переход на потребление постоянного электричества делает необходимым существенный пересмотр учебных планов, программ дисциплин и программ прохождения производственных практик. Пересмотру подлежит также и юридические положения о взаимодействии учебного заведения и производства, проблемах трудоустройства и организации производственных практик. Все это становится особенно важным для дуальных образовательных учреждениях [1-3].

Правовые, методологические и физико-технологические аспекты солнечной энергетики в инженерно- технических направлениях образования

Учитывая актуальность задачи, представляем на рассмотрение ряд обязательных вопросов и проблем, подлежащих безотлагательному коренному пересмотру, а в дальнейшем – к внедрению в учебный процесс всех энергетических направлений технического бакалавриата. Выводы по этим вопросам и проблемам вытекают из материалов совместного тщательного изучения богатого накопленного международного опыта, в частности, опыта зарубежных европейских университетов Италии, Испании и Португалии. Дело в том, что, начиная с 2023 года, организованы в

ТУИТ совместные с ними исследования, которые ведутся по программе Erasmus+ в рамках проекта «DEBSEUz» - Разработка целевой образовательной программы для бакалавров в области солнечной энергетики в Узбекистане. Особенность проекта «DEBSEUz» в том, что предполагает заранее подготовить систему высшего профессионального образования страны к бесперебойному обеспечению местными специалистами будущий процесс эксплуатации солнечных электростанций [4-5].

В качестве первоочередных задач высшего профессионального технического образования предлагается незамедлительное решение следующих научных, образовательных и административно-управленческих (законодательных) проблем, связанных, в недалеком будущем, с массовым процессом эксплуатации солнечных электростанций:

- ***Физика преобразования энергии в электричество***
- ***Промышленное преобразование различных энергий в электрическую энергию.***
- ***Электричество прямого и переменного тока***
- ***Преобразование солнечного излучения в электрическую энергию***
- ***Фотоэлектрические солнечные электрические станций – СЭС***
- ***Фотоэлектрические СЭС автономного обеспечения***
- ***Принцип работы фотоэлектрической СЭС автономного обеспечения***
- ***Установки фотоэлектрические СЭС автономного обеспечения.***
- ***Дополнительные оборудования фотоэлектрических СЭС***
- ***Фотоэлектрическая гибридная СЭС (соединенных с сетью)***
- ***Солнечные батареи и резервный дизель-генератор***
- ***Гибридная автономная система «солнце - ветер»***
- ***Башенные солнечные электростанции-БСЭС***
- ***Законодательное обеспечение развития солнечной энергетики в Узбекистане.***

Детальное раскрытие каждой проблемы

Физика преобразования энергии в электричество – необходимо проанализировать роль закона электромагнитной индукции Фарадея, который в 1831 году открыл человечеству путь к массовому электричеству.

Промышленное преобразование различных энергий в электрическую энергию – здесь сравнительном порядке надо последовательно рассмотреть принцип работы и технические характеристики турбин, механизмов преобразования в электричество всех видов электричества (ГЭС, ТЭЦ, АЭС, ВЭС, СЭС).

Электричество прямого и переменного тока – на конкретных примерах продемонстрировать принципиальные отличия между ними, раскрыть причину, по которому долгое время превалировало применение переменного тока, обосновать особенности условий, приведших в 21 веке к массовому применению постоянного электричества.

Преобразование солнечного излучения в электрическую энергию – подробное описание истории возникновения постоянного электричества, интересы человечества, сферы его изначального применения, чем обусловлен современный интерес к постоянному электричеству (природные, политические, финансовые, научные, технико-технологические)

Фотоэлектрические солнечные электрические станции – СЭС – представить схему преобразования солнечного излучения в электричество, описание технических средств и структуру устройств СЭС, необходимые для этого материалы и их количественные параметры, негативные и позитивные аспекты преобразования солнечного излучения в электричество.

Фотоэлектрические СЭС автономного обеспечения – при каких условиях более эффективны СЭС автономного обеспечения, в каких жизненных ситуациях этот вид электропотребления нужно применять, финансовые аспекты СЭС автономного обеспечения.

Принцип работы фотоэлектрической СЭС автономного обеспечения – раскрыть структуру СЭС автономного обеспечения, особенности эксплуатации, как осуществляется взаимодействия с контролирующими органами.

Установки фотоэлектрические СЭС автономного обеспечения – индивидуальные солнечные панели. Их разновидности отличия от других родственных конструкций, стоимостные показатели технического обслуживания

Дополнительные оборудования фотоэлектрических СЭС – рассмотрение конкретных типов контроллеров заряда-разряда, аккумуляторных батарей, инверторов, соединительных кабелей и коннекторов.

Фотоэлектрическая гибридная СЭС (соединенных с сетью) – структура соединенных с сетью СЭС, отличие от СЭС автономного обеспечения, их разновидности, способы осуществление их коммутации с сетью и солнечными батареями, методы осуществления переключения питания объекта на электросеть при отсутствии солнечной энергии или полном разряде аккумуляторов.

Солнечные батареи и резервный дизель-генератор - при отсутствии подключения к сети происходит автоматический запуск резервного генератора с подзарядкой аккумуляторной станции, схема сети из солнечных батарей и резервного генератора в зависимости от их разновидностей.

Гибридная автономная система «солнце - ветер» - позволяет создать полностью автономную систему практически бесперебойного питания по схеме: днем от СЭС, ночью – от ВЭВ, рассмотреть устройства, обеспечивающие поэтапный переход от постоянного электричества к переменному.

Башенные солнечные электростанции-БСЭС - по принципу испарения воды под действием солнечного излучения - в центре БСЭС имеет черный резервуар с водой, излучение от гелиостатов - обычные несколько сот (или даже – тысячи) зеркал, закрепленные на управляемой подвижной опоре, направляют на приемник энергии солнечного излучения, зеркала соединены с компьютерной системой позиционирования (к Солнцу), которая в зависимости от месторасположения Солнца, направляет отраженные лучи от всех гелиостатов на резервуар, описать и организовать экскурсию в крупнейшую в мире Паркентскую Солнечную печь (там действуют 3300 управляемых зеркал), рассмотреть отличие СЭС (постоянное электричество) от БСЭС (переменное электричество).

Законодательное обеспечение развития солнечной энергетики в Узбекистане – в чем суть законодательного обеспечения проблемы организации и проведения производственных практик, распределения на работу, прохождения регулярных курсов повышения квалификации будущих инженеров-энергетиков,

работающих с устройствами постоянного тока, необходим существенный пересмотр с дальнейшим их нормативно-правовым утверждением учебных планов, программ дисциплин и программ прохождения производственных практик.

Заключение

Основной целью данной статьи является привлечь внимание общественности к актуальной проблеме современности. Речь идет о необходимости незамедлительной трансформация системы подготовки инженерно- технических кадров на основе правовых, физико-технологических аспектов зеленой энергетики (на примере солнечной энергетики). Реализация такой задачи ускорит внедрение инновационных технологий в образовательный процесс, повысит эффективность научно-исследовательских работ и укрепит взаимную интеграцию образования, науки и производства.

ЛИТЕРАТУРА

1. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов. //«Science and innovation» international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -С. 479-482.
2. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // //«Science and innovation» international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -С. 479-482.
3. E.Z.Imamov, X.N.Karimov, A.E.Imamov // Актуальность, сущность и задачи солнечной энергетики в свете целевой образовательной программы для бакалавров в области солнечной энергетики в Узбекистане // Ферганский политехнический институт международная научно-практическая конференция по теме «подготовка кадров по солнечной энергетике: технологии, методы и инструменты» программа. 20-21-сентябр. Фергана-2024. –С. 512-516
4. E.Z.Imamov, X.N.Karimov, A.E.Imamov // Relevance, essence and tasks of solar energy in the light of the target educational program for bachelors in the field of solar energy in Uzbekistan // Ферганский политехнический институт международная научно-практическая конференция по теме «подготовка кадров по солнечной энергетике: технологии, методы и инструменты» программа. 20-21-сентябр. Фергана-2024. –С. 517-521
5. R.A.Muminov, E.Z.Imamov, X.N.Karimov, A.E.Imamov, M.A.Askarov // Расчет электрических параметров контактного поля нано-гетеро-перехода // Ферганский политехнический институт международная научно-практическая конференция по теме «подготовка кадров по солнечной энергетике: технологии, методы и инструменты» программа. 20-21-сентябр. Фергана-2024. –С. 110-117

08.00.00 – ECONOMIC SCIENCES

* * *

08.00.00 - IQTISODIYOT FANLARI

* * *

08.00.00 – ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

YASHIL IQTISDODIYOTNI TARG'IB QILISHDA ZAMONAVIY O'QITISH USULLARI

[1]Islamova Nodiraxon Azimovna, [2]Avazova Mohlarbegim Aziz qizi
[1] "Ekologiya" bo'limi mudiri, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi
e-mail: islamovanodirahon0@gmail.com
[2] "Ekologiya" bo'limi ilmiy xodimi,O'zbekiston davlat tabiat muzeyi
e-mail: mohlarbegimaz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17066960

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni targ'ib qilishda ta'lim tizimining o'rni va zamonaviy o'qitish usullarining samaradorligi tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida ekologik muammolarning chuqurlashuvi va barqaror rivojlanishga bo'lgan talab, yoshlarga ekologik madaniyatni singdirish va yashil iqtisodiyot g'oyalarini keng yoyishni talab etmoqda. Tadqiqotda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, loyiha asosida ta'lim hamda "STEAM" yondashuvi asosida ta'lim berishning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Natijalarda yashil iqtisodiyotni samarali targ'ib qilish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarning zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, ta'lim, zamonaviy o'qitish usullari, interaktiv metodlar, ekologik madaniyat, STEAM.*

Abstract. *This article examines the role of the education system in promoting the green economy and the effectiveness of modern teaching methods. The growing environmental challenges worldwide and the increasing demand for sustainable development require raising ecological awareness among youth and spreading the ideas of the green economy more widely. The study considers the advantages of interactive methods, the use of information and communication technologies, project-based learning, and the "STEAM" approach in education. The findings emphasize that innovative pedagogical approaches are essential for effectively promoting the green economy.*

Key words: *green economy, education, modern teaching methods, interactive learning, ecological awareness, STEAM.*

So'nggi o'n yilliklarda insoniyat duch kelayotgan ekologik muammolar jiddiy tus oldi: iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, havoning va suvning ifloslanishi iqtisodiy taraqqiyot jarayonida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.Ana shunday sharoitda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishning eng samarali strategiyalaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni saqlashga, balki yangi ish o'rinlarini yaratish,innovatsion texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.Yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli

targ‘ib qilishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir.Ayniqsa,yosh avlod ongida ekologik madaniyatni shakllantirish va ularni barqaror rivojlanish g‘oyalari ruhida tarbiyalash bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.Shu nuqtai nazardan,zamonaviy o‘qitish usullarini qo‘llash, interaktiv yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda loyiha asosida ta’lim berish orqali yashil iqtisodiyot g‘oyalarini samarali targ‘ib qilish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda ta’limning ahamiyatini tahlil qilish va zamonaviy o‘qitish usullarining ustun jihatlarini ilmiy asosda yoritishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri – bu ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy rivojlanishni barqaror yo‘lga qo‘yishdir. Aholi sonining ko‘payishi, sanoatning jadallashuvi va tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish natijasida ekologik muvozanat buzilmoqda. Natijada jamiyatning barcha sohalarida, xususan ta’lim tizimida, yangi yondashuvlarni talab qiladigan vaziyat yuzaga kelmoqda.

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilish jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish usullari samaradorligini tahlil qilish uchun ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, taqqoslash, kuzatish va pedagogik tajriba natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Avvalo, “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” (Mutallib Yuldashev) maqolasida berilgan nazariy qarashlar asosida yashil iqtisodiyotni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganildi. Muallifning ta’kidlashicha, yashil iqtisodiyotni kengaytirishda ta’lim tizimi yetakchi o‘rin egallaydi, chunki yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish orqali uzoq muddatli natijaga erishish mumkin.

Uning ta’kidlashicha,Yashil iqtisodiyotning mazmun mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazish mamlakatimiz ta’lim tizimi faoliyatining muhim vazifalaridan biriga aylanishi zarurdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan chop etilgan “Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”(Toshkent,2021) qo‘llanmasida berilgan interaktiv usullar — “aqliy hujum”, “klaster”, “debat” metodlari — ekologik ta’lim jarayonida samarali qo‘llanishi mumkinligi tahlil qilindi. Bu usullar yoshlarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Metodologiyaning yana bir muhim manbai sifatida O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq(mintaqaviy)markazi “Ekologik ta’lim va tarbiya” moduli bo‘yicha(Toshkent, 2023)o‘quv-uslubiy majmuasi tanlab olindi. Unda ekologik madaniyatni shakllantirishda loyiha asosida o‘qitish metodlari, xususan, ekologik loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilish orqali o‘quvchilarning mas’uliyat hissini kuchaytirish yo‘llari ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ham ko‘rib chiqildi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarda nafaqat texnik bilimlarni, balki tabiat va iqtisod o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham anglash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy manbalar asosida tadqiqotning metodik bazasi shakllantirildi. Natijada quyidagi metodlardan keng foydalanildi:

Nazariy tahlil – yashil iqtisodiyot va ta’lim metodlariga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni o‘rganish;

Kuzatish – ekologik ta’lim darslarida qo‘llanilayotgan metodlarni kuzatish va tahlil qilish;

Taqqoslash – turli o‘qitish texnologiyalarining samaradorligini qiyosiy o‘rganish;

Pedagogik tajriba – interaktiv va innovatsion metodlarni amaliy qo‘llash natijalarini tahlil qilish.

Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga, real ta’lim jarayonida sinovdan o‘tgan usullarga asoslanadi.Tadqiqot davomida ta’lim jarayonida qo‘llangan zamonaviy metodlarning samaradorligi o‘rganildi.Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki,interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, “debat”, “aqliy hujum” va kichik guruhli ishlarda yoshlarda mustaqil fikrlash, ekologik muammolarga nisbatan o‘z qarashini shakllantirish ko‘nikmalari rivojlandi.

Amaliy tajribalar shuni isbotladiki, loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarda ekologik muammolarni yechishga ijodiy yondashishni shakllantiradi. Masalan, chiqindilarni saralash yoki maktab hududini obodonlashtirish kabi kichik loyihalarda qatnashgan o‘quvchilar yashil iqtisodiyot g‘oyalarini hayotga tadbiq qilish bo‘yicha aniq takliflar bera boshladilar. Bu esa, ularning ekologik mas’uliyat hissini mustahkamladi.

STEAM yondashuvining qo‘llanishi ham ijobiy natija berdi.Texnologiya va san’atni uyg‘unlashtirgan holda ekologik darslarni tashkil etish o‘quvchilarda nafaqat bilim,balki ijodiy tasavvurni ham rivojlantirdi.O‘quvchilar chiqindilarni qayta ishlash yoki energiya tejamkor qurilmalar yaratishga oid oddiy g‘oyalarni ilgari surdilar.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarni qiziqarli qilish bilan birga, o‘quvchilarni global ekologik muammolar bilan tanishtirish imkonini berdi. Internet resurslari va virtual laboratoriyalar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar an’anaviy darslarga qaraganda ko‘proq motivatsiya uyg‘otdi.

Umuman olganda, natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

interaktiv metodlar o‘quvchilarda ekologik muammolarni tahlil qilish va yechim topishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi;

loyiha asosida o‘qitish yashil iqtisodiy fikrlashni shakllantirishda samarali bo‘ldi;

STEAM yondashuvi ekologik bilimlarni amaliyotga yo‘naltirish imkonini berdi;

axborot texnologiyalari global ekologik muammolarni anglash va taqqoslash imkoniyatini yaratdi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy izlanishlar kompleks metodlar asosida olib borildi.

Birinchidan, nazariy tahlil metodidan foydalanilib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, uning ta’lim tizimidagi o‘rni hamda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yuzasidan mavjud adabiyotlar o‘rganildi. Shu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4.10.2019-yildagi 4477-sonli “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar” haqidagi qarorlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (BMT,YuNESKO) tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosiy manba sifatida tahlil qilindi.

Ikkinchidan, empirik kuzatish metodidan foydalanildi.O‘rta umumta’lim maktablarida biologiya, geografiya, hamda ekologiya fanlarini o‘qitish jarayonlari kuzatildi.Bu kuzatuvlar ta’lim jarayonida qanday metodlar qo‘llanilayotgani,o‘quvchilarning yashil iqtisodiyotga oid tushunchalarni qay darajada o‘zlashtirayotganini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, so‘rovnoma va suhbat metodlari qo‘llanildi. O‘qituvchilar, talaba-yoshlar va o‘quvchilar bilan olib borilgan so‘rovnomalar orqali ularning yashil iqtisodiyot haqidagi bilim darajasi,amaliy ko‘nikmalari va munosabatlari o‘rganildi.Suhbatlar esa pedagoglarning zamonaviy o‘qitish usullaridan qay darajada samarali foydalanayotganini ko‘rsatdi.

To‘rtinchidan,tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.Tadqiqot doirasida ayrim maktab sinflarida ekologik mavzularni o‘qitishda interaktiv usullar (klaster, aqliy hujum, debat, loyiha ishlari) sinab ko‘rildi.Tajriba guruhlari va nazorat guruhlari o‘rtasidagi o‘zlashtirish natijalari taqqoslanib, metodlarning samaradorligi baholandi.

Tadqiqot jarayonida bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi:

Yashil iqtisodiyot tushunchasining ta’limdagi ahamiyati aniqlab berildi. O‘quvchilar yashil iqtisodiyotga oid bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirgani sari ularning kundalik hayotdagi

odatlari ham ijobiy tomonga o‘zgara boshlaydi.Masalan, energiya va suvni tejash, chiqindilarni qayta ishlash,daraxt ekish kabi amaliy faoliyatlarda faollik sezildi.

Interaktiv metodlarning samaradorligi isbotlandi. Tadqiqotda tajriba guruhida interaktiv usullar qo‘llanganda, nazorat guruhiga nisbatan bilim o‘zlashtirish darajasi 25–30% yuqori bo‘lgani kuzatildi.Ayniqsa,loyiha asosida ta’lim o‘quvchilarni mas’uliyatli faoliyatga undab,ularda ekologik muammolarga ijodiy yondashuvni shakllantirdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’siri baholandi. Multimedia vositalari yordamida o‘tilgan darslar o‘quvchilar qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.Virtual simulyatsiyalar orqali atmosferadagi CO_2 miqdorining ortishi yoki o‘rmonlarning kamayishi oqibatlarini ko‘rgan o‘quvchilar mavzuni nafaqat nazariy, balki vizual ravishda chuqurroq anglab yetishdi.

O‘quvchilar dunyoqarashidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yashil iqtisodiyot mavzulari chuqur o‘rgatilgan sinflarda o‘quvchilarning 78 foizi kundalik turmush tarzida ekologik mas’uliyatni his qilishini bildirgan. Bu ko‘rsatkich oddiy metodlar qo‘llanilgan nazorat guruhida 52 foizni tashkil etdi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish zaruriyati aniqlab olindi. Tadqiqot davomida ayrim pedagoglar interaktiv metodlarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelgani kuzatildi. Ular uchun maxsus metodik qo‘llanmalar va treninglar tashkil etish zarurligi yuzaga chiqdi.

Mahalliy sharoitga mos yondashuv zarurligi ta’kidlandi. Yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda faqat umumiy g‘oyalar emas, balki o‘quvchilarning yashab turgan hududiga xos ekologik muammolar ham ko‘rib chiqilishi kerakligi aniqlandi.Masalan, suv tanqisligi mavjud hududlarda suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha loyihalar,sanoat hududlarida chiqindilarni kamaytirishga oid dars mashg‘ulotlari yuqori natija beradi.

Yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda ta’lim tizimining tutgan o‘rni haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da,amaliyotda bu jarayon hali to‘liq samaradorlikka erishmaganini kuzatish mumkin. Shu sababli zamonaviy o‘qitish usullarini qo‘llash bugungi kun ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Avvalo, interaktiv metodlarning o‘ziga xos jihatlarini muhokama qilish joiz. Bu usullar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularda ekologik muammolarni amaliy misollar orqali anglash va hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat” kabi metodlar yashil iqtisodiyotning mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. O‘quvchilar guruhlarda ishlash jarayonida turli nuqtayi nazarlarni tahlil qiladi, o‘z fikrlarini asoslashga harakat qiladi, bu esa ularning ekologik tafakkurini shakllantirishda samarali natija beradi.

Ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida multimedia vositalarini qo‘llash orqali murakkab ekologik jarayonlarni oson va tushunarli shaklda namoyish etish mumkin. Virtual laboratoriyalar, onlayn testlar, ekologik simulyatsiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni mustaqil bilim olishga yo‘naltiradi. Xususan,ekologik loyihalar asosida yaratilgan elektron resurslar yoshlarda nafaqat nazariy bilim,balki hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, loyiha asosida ta’lim (project-based learning)ning o‘ziga xos samaralari bor. O‘quvchilar yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolarni mustaqil izlanish asosida o‘rganadilar va amaliy yechimlarni taklif qilishadi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslaridan tejamkor foydalanish yoki energiya manbalarini yangilashga oid kichik loyihalar orqali yoshlar nafaqat bilimga ega bo‘ladilar, balki ijtimoiy mas’uliyat hissini ham shakllantiradilar.

Shuningdek, STEAM yondashuvi ham alohida muhokamaga loyiq. An’anaviy fanlar integratsiyasi doirasida ekologik muammolarni ilmiy va ijodiy yondashuv asosida o‘rganish

bugungi ta’lim jarayonining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. STEAM modeli orqali o‘quvchilar ekologik muammolarga texnologik yechimlar topadi, matematik hisob-kitoblar asosida muqobil variantlarni baholaydi va san’at vositasida ularni targ‘ib qiladi. Bu esa yoshlarning yashil iqtisodiyotga oid qarashlarini nafaqat ilmiy, balki estetik va ijtimoiy jihatdan ham boyitadi.Muhokama jarayonida yana bir muhim masala — ta’lim tizimida yashil iqtisodiyotni o‘qitishda mavjud qiyinchiliklar va cheklovlardir. Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, ayrim o‘quv dasturlarida ekologik bilimlar yuzaki o‘rgatiladi,xususan, ko‘plab o‘quv muassasalarida o‘qituvchilar interaktiv metodlarni qo‘llash bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi sezildi, bu esa o‘quvchilarni ekologik muammolarni chuqur tushunishdan cheklab qo‘yadi. Ularning ko‘pchiligi darslarda yangi texnologiyalarni tatbiq qilishdan cho‘chishi yoki vaqt yetishmasligini bahona qilishi kuzatildi. Bu holat ta’lim sifati va yashil iqtisodiyot targ‘ibotining natijadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish, malaka oshirish kurslarini tashkil qilish zarur. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv adabiyotlari va resurslar ham zamonaviylashtirilishi kerak.

Muhokama davomida e’tibor qaratilgan yana bir masala — yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda hududiy yondashuvlarning muhimligi. Chunki ekologik muammolar hamma joyda bir xil emas.Masalan,Qoraqalpog‘iston hududida Orol dengizi fojiasi bilan bog‘liq ekologik muammolar mavjud bo‘lsa,Toshkent shahrida transportdan chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish asosiy muammo hisoblanadi.Shu sababli yashil iqtisodiyot bo‘yicha ta’lim mazmuni har bir hududning real ekologik vaziyatiga moslashtirilishi kerak.Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki,yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda ta’lim tizimi eng kuchli platforma hisoblanadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy usullarni qo‘llash orqali ekologik ongni shakllantirish, yoshlarni barqaror rivojlanish g‘oyalari asosida tarbiyalash va ularning amaliy hayotdagi xatti-harakatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat siyosati, ta’lim muassasalari, pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur.

Muhokama yakunida shuni aytishimiz kerakki,Yashil iqtisodiyot g‘oyalarini samarali targ‘ib qilish uchun ta’lim jarayonida an’anaviy va zamonaviy metodlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.Interaktiv metodlar yoshlarni faollikka chorlaydi,AKT vositalari ularni global jarayonlarga bog‘laydi,loyiha asosida ta’lim ularni mas’uliyatli faoliyatga undaydi,STEAM yondashuvi esa ekologik muammolarga kompleks yechim taklif qilish imkonini beradi.Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida barcha yondashuvlarni birlashtirib qo‘llash yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda eng samarali yo‘l sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. Yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ma’naviy muammo sifatida ham qaralishi lozim. Chunki iqtisodiyotda amalga oshiriladigan har qanday ekologik islohot jamiyatning ongli ishtirokisiz samarali bo‘lishi qiyin. Shu bois ta’lim tizimida bu mavzuni chuqur va tizimli o‘qitish bugungi kun talabiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturlarida yosh avlodning barqaror rivojlanish g‘oyalari asosida tarbiyalanishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, bevosita, yashil iqtisodiyot tamoyillarini o‘quv jarayoniga singdirishni nazarda tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish orqali nafaqat ekologik barqarorlik,balki iqtisodiy samaradorlik ham erishiladi.Chunki yashil iqtisodiyotning mazmuni – resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, energiya tejamkorlikni targ‘ib qilish – yoshlarning hayotiy ko‘nikmalariga aylanishi kerak. Shu ma’noda, pedagoglarning malakasini oshirish, zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va yoshlarni yoshligidan ekologik mas’uliyatga o‘rgatish dolzarb vazifadir.Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda ta’lim tizimining roli nafaqat bugungi kun, balki

kelajak avlodning hayot sifati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda davlat siyosati, ta’lim muassasalari va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turobova H.R., Kadirova M.M., “Yashil iqtisodiyot”
2. Z.M. Sattorov, Ekologiya (Toshkent:ZEBO PRINT,2022).
3. H.T. Tursunov, T.U.Raximov, Ekologiya (Toshkent:NIF MSH, 2020).
4. R.Shodmonov, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari (Toshkent: 2024).
5. X.N. Haydarova,S.Sh.Yuldasheva, Ekologik ta’lim – tarbiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua (Toshkent: 2022).
6. S.M. Turobdjonov, M.M.Aripova, Ijtimoiy ekologiya (Toshkent:Book trade,2022).
7. M. Yuldashev, “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” (2023,11-12-sonlar)
8. O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq(mintaqaviy)markazi “Ekologik ta’lim va tarbiya” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmuasi (Toshkent,2023)

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI DOIRASIDA KICHIK BIZNESNI FAOLLASHTIRISH MASALALARI

[1]Isroilov Dilshodbek Rustamovich, [2]Isroilova Odina Rustambek qizi
[1]Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bo‘lim boshlig‘i
ORCID: 0009-0002-6336-2239
[2]Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
ORCID: 0009-0005-6325-2701
https://doi.org/10.5281/zenodo.17066969

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida kichik biznesni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Muallif mamlakatda olib borilayotgan ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar fonida kichik biznes uchun yangi ochilayotgan imkoniyatlarni tahlil qiladi. Mavzuga doir xalqaro va mahalliy tajribalar qiyosiy o‘rganilib, kichik tadbirkorlikning yashil sohalarga integratsiyalashuvi baholangan. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy, huquqiy va texnologik cheklovlari ochib berilgan. Shu asosda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Ilmiy yangilik sifatida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning milliy modeliga oid takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot ekologik barqarorlikni ta’minlashda kichik biznesning faolligini oshirish muhimligini asoslaydi.*
Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, kichik biznes, barqaror rivojlanish, ekologik islohotlar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, innovatsiya, davlat siyosati.*

Abstract. *This article explores the issues of activating small business within the framework of Uzbekistan’s green economy concept. The author analyzes new opportunities emerging for small enterprises in the context of ongoing environmentally focused economic reforms. Both international and local experiences are comparatively studied to assess the integration of small businesses into green sectors. The article identifies existing financial, legal, and technological constraints faced by entrepreneurs. Based on this, practical recommendations are proposed to address the identified problems. As a scientific contribution, the study puts forward a national model for supporting small business under green economy conditions. The research highlights the importance of enhancing the role of small businesses in achieving environmental sustainability.*
Key words: *green economy, small business, sustainable development, environmental reforms, financial support, innovation, state policy.*

Kirish. So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatga erishish masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, “yashil

iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish orqali nafaqat atrof-muhit muhofazasiga erishish, balki iqtisodiyotning yangi, ekologik toza yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston ham bu borada jahon tajribasiga tayanib, o‘zining milliy strategiyasini shakllantirmoqda. Jumladan, mamlakatda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi kichik biznes subyektlarini jalb etgan holda amalga oshirilmoqda [1].

Kichik biznes — iqtisodiyotning eng harakatchan va moslashuvchan segmenti bo‘lib, ekologik innovatsiyalarni joriy qilish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan kichik tadbirkorlik subyektlarining faolligiga bog‘liqdir. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida kichik biznesni faollashtirishning asosiy omillari, muammolari va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda kichik biznes — iqtisodiyotning eng dinamika bilan rivojlanayotgan segmenti bo‘lib, uning hissasi sezilarli. 2023-yil yanvar-sentyabr oylarida kichik biznes sub’yektlari soni 418,7 minggacha yetgan. Bundan tashqari, 2019–2024-yillar davomida yangi tashkil qilingan kichik va mikrofirma soni jami 411 058 ni tashkil etgan. Umumiy iqtisodiy kontekstdan ko‘rib chiqilsa, kichik biznes O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) 50 %dan ortiq, bandlik (ish bilan ta’minlash) bo‘yicha esa 70 % hissa qo‘shadi [2].

1-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida kichik biznesning raqamli ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
Kichik biznes sub’yektlari soni (2023)	418 700 dan ortiq	yuz.uz, stat.uz
Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (2023)	50%+	stat.uz
Bandlikdagi ulushi (2023)	70%	grnjournal.us
Yashil energiya umumiy quvvati (2024)	5 166 MW	ru.wikipedia.org
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (2024)	24.4%	ru.wikipedia.org
GEFF orqali moliyalashtirilgan kichik biznes loyihalari	~1000+ loyiha	documents1.worldbank.org
2023-yilda qurilgan quyosh va shamol stansiyalari	16 ta (3,5 GW umumiy quvvatda)	president.uz
2030-yilgacha yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasidagi loyihalar	60 dan ortiq loyiha	strategy.uz
Ekologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik firma soni (2023)	~4 800 ta	zenodo.org
Energiya samaradorligi loyihalariga jalb qilingan kichik biznes	30% atrofida	zenodo.org

Ushbu jadvalda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasida kichik biznes sub’yektlari ishtirokiga oid eng so‘nggi va dolzarb statistik ma’lumotlar

jamlangan. Unda kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, ekologik va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi loyihalarda ishtiroki, shuningdek, mavjud davlat dasturlari va xalqaro moliyaviy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlash holatlari yoritilgan. Jadval tahlil va siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda kichik va o‘rta biznes (KOB) “Green Economy Financing Facility” (GEFF) mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlanishi ko‘zda tutilgan. Jahon banki tomonidan ushbu moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishda yordam berilmoqda. Bu moliyaviy instrumentlar kichik tadbirkorlik sub’yektlarini energiya samaradorligini oshirish va ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etishda muhim o‘rin tutadi [3].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda katta hajmdagi yomog‘li energiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2024-yilga kelib 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari (jami 3,5 GW) va 35 ta kichik gidrostansiyalar qurib foydalanishga topshirilgan. 2023-yilda qayta tiklanuvchi energetika quvvati 2 668 MW ni tashkil qilgan; 2024-yil oxirida esa bu ko‘rsatkich 5 166 MW ga yetgan va umumiy energiya quvvatidagi “yashil” ulushi 24,4 % bo‘lgan. Bu “yashil” boyliklar kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar: masalan, quyosh panellari o‘rnatish, kichik elektr ishlab chiqarish infratuzilmasi qurish, energiya samaradorlik choralari joriy etish yo‘nalishlarida faol ishtirok etishlari mumkin [3].

2-jadval

O‘zbekistonda kichik biznesning yashil iqtisodiyotga integratsiyasi: 2018–2024-yillar bo‘yicha tahliliy ko‘rsatkichlar

Yil	Kichik biznes sub’yektlari (mingta)	Yashil energiya quvvati (MW)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Kichik biznesning yashil loyihalardagi ulushi (%)
2018	327.4	500	4.5	5
2019	342.1	750	6.2	8
2020	356.7	1200	9.8	12
2021	372.5	1600	13.1	17
2022	391.2	2000	17.3	22
2023	418.7	2668	21.0	30
2024	440.0	5166	24.4	35

Mazkur jadval 2018–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesning rivojlanishi va yashil iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini yillik kesimda aks ettiradi. Unda kichik biznes sub’yektlari sonining o‘sishi, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining kengayishi, yashil energiya ulushining ortishi hamda kichik biznesning ushbu loyihalardagi ishtiroki foizlar orqali ko‘rsatilgan. Jadvalda keltirilgan prognoz ma’lumotlar 2024-yil uchun rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga asoslanadi va mavjud siyosiy-texnik yondashuvlarning istiqbolini ko‘rsatadi.

2025-yilda chop etilgan bir qator tadqiqotlar va rasmiy tahlillarda 2018–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilganligi qayd etilgan. Xususan, energiya mahsuldorligi, yashil bandlik, qayta tiklanuvchi energiya integratsiyasi va ko‘kon (ya’ni o‘rmonlashtirish) bo‘yicha davlat siyosati aniq yo‘nalishga ega bo‘lib, ijobiy dinamikani ko‘rsatmoqda. Kichik biznes ushbu transformatsiyada muhim ishtirokchi sifatida maydonga chiqmoqda. Turli ekologik innovatsion g‘oyalar,

texnologiyalar va xizmatlar aynan kichik va o‘rta tadbirkorlik (KOT) sektori tomonidan ilgari surilmoqda. Bu esa ular tomonidan atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuv shakllanayotganini ko‘rsatadi [4].

Ayrim manbalar ta’kidlashicha, kichik biznes sub’yektlarining ekologik innovatsiyalarni tatbiq etishdagi faolligi yildan yilga ortmoqda. Buning sababi, bir tomondan, energiya xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga intilish bo‘lsa, boshqa tomondan — global va mahalliy bozorlarda raqobatbardoshlikni saqlab qolish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya yechimlari — quyosh panellari, bioenergetika uskunalari, energiyani tejaydigan texnologiyalar — bugungi kunda kichik biznes uchun qulay sarmoya ob’ekti bo‘lib qolmoqda.

Biroq, mazkur jarayonlarda hal etilishi zarur bo‘lgan bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, yashil moliyalashtirish (green finance) instrumentlariga bo‘lgan yuqori talab hozircha to‘liq qondirilmayapti. Kreditlar va grant dasturlarining yetarli emasligi, moliyalashtirish mexanizmlarining murakkabligi, huquqiy va texnik cheklovlar — kichik biznes vakillarining ko‘pchiligini ushbu sohadagi faoliyatdan to‘xtatmoqda. Shuningdek, yashil texnologiyalar bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi, axborot tanqisligi va professional kadrlar taqchilligi ham yashil transformatsiyani sekinlashtiruvchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Ekologik loyihalarni amalga oshirishda, ayniqsa, hududiy notekisliklar kuzatilmoqda — ayrim viloyatlar ilg‘or tajriba namoyon qilayotgan bo‘lsa, boshqalarda bu borada sustkashlik kuzatilmoqda [5].

2025-yil 27-yanvar sanasida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda aynan ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Uchrashuvda qayd etilishicha, mamlakatda joriy dasturlar samarasida “yashil energetika”ning umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 16 foizga yetgan. Yil yakuniga kelib esa bu ko‘rsatkich 26 foizgacha yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Energiya sohasidagi yangi loyihalar qamrovli bo‘lib, 1,8 gigavattli shamol va quyosh elektr stansiyalari hamda energiya saqlash tizimlarining qurilishi rejalashtirilgan. Bu — faqat yirik kompaniyalar emas, balki kichik biznes sub’yektlari uchun ham keng ishtirok maydonini yaratadi [1].

Bundan tashqari, 2023-yil davomida parlament muhokamasiga kiritilgan bir qator qonun loyihalari kichik biznesni yashil iqtisodiyotga faol jalb qilishga qaratilgan. Ushbu loyihalarda kichik grantlar ajratish, ekologik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalariga “yashil iqtisodiyot asoslari” fanini kiritish, shuningdek, ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Bu tashabbuslar, agar tizimli ravishda amalga oshirilsa, kichik biznesni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik modernizatsiyaning strategik drayveriga aylantirishi mumkin [6].

Yuqoridagi barcha raqamlar, siyosiy tashabbuslar va amaliy natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda kichik biznes yashil iqtisodiyot konsepsiyasini hayotga tatbiq etishda tobora muhim rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda bu sektorning o‘sish sur’atlari, ekologik loyihalardagi faolligi va rasmiy dasturlardagi o‘rni buni yaqqol tasdiqlaydi. Biroq, moliyaviy, tashkiliy va institutsional muammolar mavjud bo‘lib, ular strategik va tizimli yondashuv bilan bartaraf etilishi lozim. Aks holda, “yashil” o‘sish sur’atlari izchil davom etmasligi mumkin. Shu sababli, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki ekologik barqarorlik masalasining ham ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda [4].

Xulosa. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishda kichik biznes hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda kichik biznes

sub’yektlari soni barqaror o‘sib bormoqda va ularning ekologik innovatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi kabi yo‘nalishlardagi ishtiroki ortmoqda. 2023-yilga kelib kichik biznesning yashil loyihalardagi ulushi 30 %ga yetgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yil uchun 35 %ga chiqishi kutilmoqda.

Davlat tomonidan taqdim etilayotgan strategik yo‘nalishlar, moliyaviy vositalar (GEFF kabi), hamda yirik energetik transformatsiyalar kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq, moliyalashtirish, texnologik savodxonlik va institutsional qo‘llab-quvvatlashdagi kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kelgusidagi muvaffaqiyatning kalitidir.

Demak, yashil iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun kichik biznesni nafaqat iqtisodiy sub’yekt, balki ekologik barqarorlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rish zarur. Mazkur yondashuv O‘zbekistonning ekologik va iqtisodiy maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti (2024*). Yashil energetikani rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilish*.
2. Zenodo (2024). Murodov, I. *Development of the green economy and small business in Uzbekistan.*
3. Karimov I.A. (2012). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat.
4. Xudoyberganov Q.X., Jo‘raev A.T. (2021). Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”.
5. Gechev, R., & Stoicheva, T. (2020). Green economy – opportunities and challenges for SMEs. Journal of Economics & Management, 41(2), 101-113.
6. GRN Journal (2023). *The role of small business in Uzbekistan's economy.*
7. World Bank (2023). *Uzbekistan Energy Efficiency Financing Project (GEFF documentation).*

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

KORPORATIV BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI: O‘ZBEKISTONDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI

Jumayeva Guzal Sherxon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
e-mail: g.jumayeva@tsue.uz tel: +998946008419
ORCID: 0009-0001-1290-3763
https://doi.org/10.5281/zenodo.17066987

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korporativ boshqaruv sohasidagi asosiy nazariy yondashuvlar — agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi, institutsional nazariya hamda resurslarga bog‘liqlik nazariyasi — O‘zbekiston sharoitida baholanadi. Tadqiqot maqsadi ushbu nazariyalarni amaliy va kontekstual jihatdan tahlil qilish orqali O‘zbekiston kabi o‘tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakat uchun eng mos boshqaruv yondashuvini aniqlashdan iborat.*
Kalit so‘zlar: *korporativ boshqaruv, boshqaruv nazariyalari, agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi, institutsional nazariya, resurslarga bog’liqlik nazariyasi, O‘zbekiston biznes muhiti.*

Abstract. *This article evaluates the main theoretical approaches in corporate governance — agency theory, stakeholder theory, institutional theory, and resource dependence theory — within the context of Uzbekistan. The aim of the study is to identify the most appropriate governance approach for a transitional economy like Uzbekistan by analyzing these theories from both practical and contextual perspectives.*
Key words: *corporate governance, governance theories, agency theory, stakeholder theory, institutional theory, resource dependence theory, Uzbekistan business environment.*

Аннотация. *В данной статье оцениваются основные теоретические подходы в области корпоративного управления — агентская теория, теория заинтересованных сторон, институциональная теория и теория зависимости от ресурсов — в контексте Узбекистана. Цель исследования заключается в определении наиболее подходящего управленческого подхода для страны с переходной экономикой, такой как Узбекистан, посредством анализа указанных теорий с практической и контекстуальной точек зрения.*
Ключевые слова: *корпоративное управление, теории управления, агентская теория, теория заинтересованных сторон, институциональная теория, теория зависимости от ресурсов, деловая среда Узбекистана.*

Kirish. Korporativ boshqaruv nazariyalari zamonaviy tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va samarali qaror qabul qilishning nazariy asosini beradi. Ushbu nazariyalar rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda, biroq ularning O‘zbekiston kabi o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda tatbiq etilishi ko‘p hollarda kontekstual murakkabliklarga duch keladi. Xususan, davlat ishtirokining yuqoriligi, aksiyadorlar faolligining pastligi, axborot shaffofligining yetishmasligi hamda institutsional muhitning zaifligi mavjud nazariyalarni amaliy qo‘llashda muammolarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda korporativ boshqaruv nazariyalarining umumiy ko‘rinishdagi sharhlari mavjud bo‘lsa-da, ushbu nazariy yondashuvlarning O‘zbekiston kontekstida qanday ishlashi, qaysi biri nisbatan samaraliroq ekani bo‘yicha izchil tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu maqola agentlik, manfaatdor tomonlar, institutsional va resurslarga bog‘liqlik nazariyalarini tanqidiy tahlil qilish orqali O‘zbekistonda eng mos nazariy yondashuvni aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Korporativ boshqaruv nazariyalari o‘z vaqtida iqtisodiy, siyosiy va institutsional muammolarga javoban shakllangan bo‘lib, ularning har biri muayyan sharoitda tashkilot ichidagi manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan. Quyida agentlik, manfaatdor tomonlar, institutsional va resurslarga bog‘liqlik nazariyalari ketma-ketlikda tahlil qilinadi.

1970-yillarda AQSh va Yevropa korporatsiyalarida egalik bilan menejment ajralib borishi kuchaygan pallada, aksiyadorlar o‘z manfaatlarining buzilayotganidan xavotir ola boshladilar. Aynan shu vaziyatda Jensen va Meckling tomonidan 1976-yilda agentlik nazariyasi ishlab chiqilgan [1] bo‘lib, u menejerlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqaruvning asosiy muammosi sifatida talqin qiladi. Bu nazariya xususiy mulkchilik rivojlangan, korporativ tuzilmalar murakkab va kapitallar ajratilishi erkin bo‘lgan bozor iqtisodiyotlari uchun eng maqbul deb qaraladi. Chunki u shaffoflik, hisobot berish va kuzatuv kengashlari orqali menejerlarni intizomga chaqirishga asoslanadi. Nazariyaning kuchli jihati shundaki, u menejerlarning harakatlarini monitoring qilish va rag‘batlantirish tizimlarini asoslash imkonini beradi. Biroq zaif tomoni shundaki, u faqat aksiyadorlar manfaatlarini ustuvor deb biladi va boshqa manfaatdor tomonlarning rolini chetda qoldiradi. O‘zbekiston sharoitida menejerlarning ko‘pchiligi tayinlash yo‘li bilan lavozimga kelgani va aksiyadorlarning faol ishtiroki past bo‘lgani sababli, agentlik muammosi dolzarb hisoblanadi. Biroq mustaqil kuzatuv organlarining zaifligi va axborot shaffofligining yetarli emasligi ushbu nazariyaning to‘liq amalda qo‘llanishini cheklaydi.

Agentlik nazariyasining faqat aksiyadorlar manfaatlariga yo‘naltirilganligi tanqid ostiga olinib, 1984-yilda Freeman tomonidan ishlab chiqilgan manfaatdor tomonlar nazariyasi [2] ilgari surildi. U korporatsiyaning faqat aksiyadorlarga emas, balki barcha manfaatdor tomonlarga — jumladan, xodimlar, mijozlar, ta’minotchilar va jamoatchilikka — nisbatan mas’uliyatini tan olishi lozimligini asoslaydi. Ushbu yondashuv ijtimoiy adolat, uzoq muddatli barqarorlik va korporativ maqbullikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu nazariyaning afzalligi shundaki, u korxonalarni ijtimoiy va ekologik mas’uliyatli faoliyat yuritishga undaydi, biroq amaliy zaifligi shundaki, manfaatdor tomonlarning talablari orasidagi ziddiyatlar qaror qabul qilishda murakkablik tug‘diradi. O‘zbekiston korporativ boshqaruv amaliyotida manfaatdor tomonlarning, xususan iste’molchilar, xodimlar va mahalliy jamoalarning ovozi hanuz kuchli emas; shu bilan birga, uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy legitimlikni ta’minlash istagi bu yondashuvni istiqbolli deb baholashga asos beradi.

Institutsional nazariya 1977-yilda John W.Meyer va Brian Rowan tomonidan taklif etilgan [3] bo‘lib, u tashkilotlarning xatti-harakatlarini tushunishda rasmiy me’yorlar, madaniyat, qonun va jamiyatdagi institutsional bosimlarning o‘rnini markaziy o‘ringa qo‘yadi; bu nazariyaga ko‘ra, tashkilotlar samaradorlik uchun emas, balki maqbullikka erishish uchun tashqi muhit talablariga moslashadi. Kuchli jihati shundaki, u tashkilotlarning tashqi bosimlarga qanday javob berishini tushuntiradi, ammo zaif tomoni — u ichki innovatsiyalar va tashabbuslarning rolini yetarlicha tushuntirib bera olmaydi. O‘zbekiston sharoitida esa davlat tomonidan qat’iy tartibga solish, qonun ustuvorligi va tashqi institutlarga moslashuv kuchli bo‘lganligi sababli bu nazariya real voqelikni ancha yaxshi aks ettiradi, biroq bu holat ichki transformatsiyalarning sekinlashuviga olib kelishi mumkin.

Tashkilotlar o‘z resurslarining ko‘pchiligini tashqi muhitdan oladi. Aynan shu holat 1978-yilda Pfeffer va Salancik tomonidan ishlab chiqilgan resurslarga bog‘liqlik nazariyasining [4] shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ular tashkilotlarning resurslar taqsimoti va tashqi manbalarga qaramlik darajasiga qarab o‘z xatti-harakatlarini shakllantirishini ta’kidlaydi. Bu yondashuvda tashqi muhitdagi asosiy ta’minotchilar, hukumat va moliyaviy institutlar tashkilotlar qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uning afzalligi — tashkilotlar qanday qilib strategik ittifoqlar yoki moslashuv orqali resurslarni nazorat qilishga urinishi haqida tushuncha berishidadir, ammo bu nazariya ichki resurslar va innovatsion salohiyatni ikkinchi rejaga surib qo‘yadi. O‘zbekistonda esa davlat imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa tashqi resurslarga yuqori darajadagi qaramlik mavjudligi sababli ushbu yondashuv real boshqaruv tajribasini yaxshi tushuntiradi, lekin u korxonalar mustaqilligini va strategik erkinligini cheklab qo‘yishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda nazariy yondashuv asosida manbalar tahlil qilingan bo‘lib, asosiy metod sifatida mantiqiy tahlil, qiyosiy yondashuv, nazariy konsepsiyalarni guruhlash, kuchli va zaif jihatlarni solishtirish, shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muvofiqlik darajasini baholash usullaridan foydalanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi nazariy modelni aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir nazariya o‘ziga xos yondashuv va maqsadlarga ega bo‘lib, ular korporativ boshqaruv tizimini tushuntirishda turlicha imkoniyatlar yaratadi. Biroq, O‘zbekistonning amaldagi iqtisodiy modeli, davlat ishtirokining yuqoriligi, aksiyadorlar faolligining pastligi va institutsional infratuzilmaning shakllanayotgan bosqichda ekanligi — nazariy yondashuvlar samaradorligini keskin farqlab beradi.

Agentlik nazariyasi, xususiy mulkka asoslangan rivojlangan bozorlarda o‘zini oqlagan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda aksiyadorlar faolligining sustligi va mulkchilikda davlat ustuvorligi mavjud bo‘lgani sababli, bu model to‘liq ishlamaydi. Nazariya tomonidan taklif etilgan monitoring va rag‘bat tizimlari hanuzgacha amaliyotda zaif qo‘llanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 261 ta aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi mavjud bo‘lib, bu jami ro‘yxatdagi 688 ta aksiyadorlik jamiyatlarining 37,9%ini tashkil etadi. Ushbu korxonalardagi davlat ulushining umumiy hajmi — 171,6 trln so‘m, bu esa aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan 79,9%ni tashkil etadi, bu esa agentlik nazariyasining amaliy integratsiyasini kamaytiradi.

Manfaatdor tomonlar nazariyasi esa ijtimoiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan g‘oyalari bilan ahamiyatli, lekin O‘zbekistonda korporatsiyalar hali to‘liq mas’uliyatli subyekt sifatida shakllanmaganligi, shuningdek, manfaatdor tomonlarning kuchsiz institutsional himoyasi tufayli bu modelning amaliy ta’siri cheklangan. O‘zbekiston shaffoflik va hisobdorlikni oshirish nuqtai nazaridan hamon orqada: Transparency International 2021-yilgi korrupsiya indeksida [5]

mamlakat 180 ta davlat orasida 140-o‘rinni egallagan , 2023-yilda esa reyting biroz yaxshilansa-da, 100 balldan 32 ball yig’ib 121-o‘rinda qolmoqda. Bu holat manfaatdor tomonlar, xususan, xodimlar va iste’molchilarning haqiqiy himoyasi yetishmovchi ekanini ko‘rsatadi.

Resurslarga bog‘liqlik nazariyasi korxonalarning davlat va boshqa tashqi resurslarga qaramligini yaxshi tushuntirgan bo‘lsa-da, u boshqaruvda strategik mustaqillik va ichki islohotlarning zaruratini ikkinchi planga suradi. Bu esa modernizatsiya va raqobatbardoshlik uchun xavf tug‘diradi. Davlat ulushi majud korxonalar O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy segmentida turadi. Xususan, davlatga tegishli korxonalar sanoat va transportda yetakchilik qilmoqda. Bu vaziyat korxonalarni tashqi resurslar, masalan, byudjet subsidiya va imtiyozli kreditlarga bog‘liq qiladi va resurslarga bog‘liqlik nazariyasini real sharoitda kuchli izohlaydi. Shu bilan birga, bu qaramlik ichki boshqaruv erkinligini cheklaydi. Jahon banki hisobotiga [6] ko‘ra, O‘zbekistonda davlatga tegishli sanoat kompaniyalari 50 % dan ortiq ulushni egallaydi. Bu korxonalar strategik qarorlar qabul qilishda tashqi resurslardan kelgan bosim ostida bo‘ladi, natijada ularning ichki boshqaruv erkinligi susayadi.

Institutsional nazariya O‘zbekiston sharoitida nisbatan ko‘proq mos tushuvchi yondashuv sifatida ajralib turadi. Bu nazariya hukumatning normativ bosimi, qonunchilikdagi islohotlar va tashqi standartlarga (masalan, ESG yoki IHTT tamoyillariga) moslashish harakatlarini tushuntirib bera oladi. Shuningdek, bu model O‘zbekistonning tranzitsion iqtisodiyotiga xos bo‘lgan rasmiylashtirilmagan me’yorlar va ijtimoiy odatlarning boshqaruv qarorlariga ta’sirini ham izohlashga qodir. Shunday qilib, institutsional nazariya O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimining real mexanizmlarini ochib berishda nisbatan eng maqbul yondashuv sifatida baholanadi. Biroq bu nazariya doirasida faqat tashqi moslashuv bilan cheklanmasdan, ichki islohotlar, xususan, axborot shaffofligi, mustaqil kuzatuv kengashlari va manfaatdor tomonlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish zaruriyati ham tan olinishi lozim.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot korporativ boshqaruvning turli nazariy asoslarini o‘rganib, ularning O‘zbekiston sharoitidagi qo‘llanilishi samaradorligini baholadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, agentlik nazariyasi O‘zbekistondagi davlat ulushi yuqori bo‘lgan korxonalarda kuzatilayotgan manfaatlar to‘qnashuvi muammolarini izohlashda asosiy nazariya sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlar nazariyasi ijtimoiy mas’uliyat va manfaatlar muvozanatini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Resurslarga bog‘liqlik va institutsional nazariyalar esa tizimning tashqi omillarga qaramligini, hamda institutlar zaifligi natijasida yuzaga keladigan cheklovlarni tushuntirishda foydali bo‘ldi.

Tavsiyalar:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarda agentlik muammolarining kuchayib borayotganligi inobatga olinsa, mustaqil direktorlar ulushini oshirish va ularning real qaror qabul qilish vakolatlarini institutsional darajada kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.
2. Manfaatdor tomonlar nazariyasini amaliyotga tatbiq etish faqatgina shaffoflikni ta'minlash bilangina emas, balki manfaatdor tomonlar bilan tizimli va ikki tomonlama muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy hisobot berish mexanizmlarini joriy etishni ham talab qiladi.
3. Korporativ boshqaruvda davom etayotgan islohotlar fonida xalqaro standartlarga moslashtirilgan, huquqiy jihatdan majburiy bo‘lgan korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruratga aylangan.
4. Korxonalarni tashqi resurslarga ortiqcha darajada bog‘liqlikdan xalos etish uchun mamlakatda xususiy sektorni faollashtirish bilan birga kapital bozorlarini chuqurlashtirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kelajak tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar:

- O‘zbekiston sharoitida moliya, energetika va sanoat kabi turli sektorlar kesimida korporativ boshqaruv nazariyalarining amaliy natijalarini empirik tadqiq qilish, har bir yondashuvning kontekstga bog‘liq samaradorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.
- Davlat ishtirokidagi korxonalar hamda xususiy sektor o‘rtasidagi boshqaruv samaradorligini longitudal asosda solishtirish, vaqt o‘tishi bilan boshqaruv strategiyalarining natijaviyligidagi farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.
- ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv nazariyalari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini chuqur o‘rganish orqali nafaqat ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish, balki boshqaruvning barqarorligini ham ta’minlash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // *Journal of Financial Economics*. – 1976. – Vol. 3, no. 4. – P. 305–360.
2. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Boston: Pitman, 1984. – 276 p.
3. Meyer, J. W., & Rowan, B. (1977). Institutionalized Organizations: Formal Structure as Myth and Ceremony. American Journal of Sociology, 83(2), 340–363.DOI: 10.1086/226550
4. Pfeffer J., Salancik G.R. The External Control of Organizations: A Resource Dependence Perspective. – New York: Harper and Row, 1978. – 300 p.
5. Transparency International. (2024). Corruption Perceptions Index 2023. Berlin: Transparency International. URL: https://www.transparency.org/en/cpi/2023
6. The World Bank. (2023). Uzbekistan Country Private Sector Diagnostic: Creating Markets in Uzbekistan. Washington, DC: International Finance Corporation.URL:https://api.mf.uz/media/document_files/file_F2XaRnt.pdf

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

EKOTURIZMNING HUDUDIY RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI

Oblaqulova Sitora Olim qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islom ensiklopediyasi" bo'limi kichik ilmiy xodimi,
+998994145035, sitoraoblaqulova00@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067003

Annotatsiya. *Ekoturizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Maqolada O'zbekistonning turli hududlarida ekoturizm loyihalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siri har tomonlama tahlil qilingan. Hududlarda ekoturizm orqali aholi bandlik darajasini oshirish, mahalliy daromadlarni ko'paytirish va turizm raqobatbardoshligini kuchaytirishga bo'lgan ta'siri yoritilgan. Shu bilan birga, hududiy rivojlanish va barqaror turizmni ta'minlashdagi muammolar ham ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *ekoturizm, hududiy raqobatbardoshlik, barqaror turizm, mahalliy rivojlanish.*

Abstract. *Ecotourism is regarded as an important tool for enhancing regional competitiveness. The article provides a comprehensive analysis of the economic, ecological, and social impacts of ecotourism projects in various regions of Uzbekistan. It highlights the influence of ecotourism on job creation, increasing local incomes, and improving the tourism competitiveness of regions. Additionally, the article examines the challenges in ensuring regional development and sustainable tourism.*
Key words: *ecotourism, regional competitiveness, sustainable tourism, local development.*

Аннотация. *Экотуризм рассматривается как важный инструмент повышения региональной конкурентоспособности. В статье всесторонне проанализировано экономическое, экологическое и социальное влияние проектов экотуризма в различных регионах Узбекистана. Освещено воздействие экотуризма на создание рабочих мест, увеличение доходов местного населения и повышение туристической конкурентоспособности регионов. Кроме того, рассмотрены проблемы, возникающие при обеспечении регионального развития и устойчивого туризма.*
Ключевые слова: *экотуризм, региональная конкурентоспособность, устойчивый туризм, местное развитие.*

Kirish. So‘nggi yillarda turizmning turli yo‘nalishlari jadal rivojlanib, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Shu jumladan, ekoturizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda samarali vosita sifatida e’tiborni tortmoqda. Ekoturizm tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, mahalliy aholini band qilish, mahalliy daromadlarni oshirish va hududlarning turizm salohiyatini kuchaytirish orqali hududiy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shadi. Hududiy raqobatbardoshlik atamasi ma’lum bir hududning boshqa hududlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va turizm salohiyati bo‘yicha raqobat qobiliyatini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, hududlar o‘zining tabiiy manbalari, madaniy merosi va tarixiy obidalari orqali turizm yo‘nalishida raqobat qobiliyatini oshirishi mumkin. Ekoturizm loyihalari aynan shu maqsadga xizmat qiladi, ular hududning noyob tabiiy va madaniy resurslarini rivojlantirib, turistlar uchun jozibadorligini kuchaytiradi va, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotni ham rag‘batlantiradi.

Ekoturizmning samarali rivojlanishi hududiy barqarorlik va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Barqaror turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tabiiy muhitni saqlash va mahalliy madaniyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy aholining turizm sohasidagi faol ishtiroki ularning ijtimoiy farovonligini oshiradi, yoshlar va aholi orasida yangi ish o‘rinlarini yaratadi hamda hududda turizmni barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Ekoturizm shuningdek, hududlarning turizm salohiyatini kengaytirish orqali ularning boshqa hududlar bilan raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Bu jarayonda hududlar o‘ziga xos tabiiy landshaftlar, tarixiy obidalar va madaniy merosni turistlarga taqdim etadi. Shu bilan birga, ekologik me’yorlar va barqaror boshqaruv mexanizmlari tatbiq etilganda ekoturizm loyihalari hududlarda uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ekoturizmning ahamiyati faqatgina turizm rivoji bilan cheklanibgina qolmay, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, madaniy merosni asrash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash kabi ko‘plab omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, hududiy rivojlanish strategiyasida ekoturizmning roli katta va unga hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot O‘zbekiston hududlarida ekoturizmning hududiy raqobatbardoshlikka ta’sirini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi hududlarning turizm salohiyati, mahalliy resurslardan foydalanish darajasi va ekoturizm loyihalarining hududiy raqobatbardoshlikka ko‘rsatgan ta’sirini tizimli tahlil qilishga qaratildi.

Ma’lumotlar uchta asosiy manbadan yig‘ildi: rasmiy statistika, so‘rovnomalar va joyida kuzatuvlar. Rasmiy statistika hududlarning turizm salohiyati, turistlar oqimi, mahalliy daromad va bandlik darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun ishlatildi. Ushbu ma’lumotlar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ekoturizm loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda hududiy raqobatbardoshlikni o‘lchashda asosiy baza sifatida xizmat qildi. So‘rovnomalar mahalliy aholining ekoturizm loyihalaridagi ishtiroki, ularning daromad manbalari, turizm sohasidagi faoliyati va loyihalarning ijtimoiy ta’sirini o‘lchash maqsadida o‘tkazildi. Tadqiqot davomida ko‘plab respondentdan ma’lumotlar yig‘ildi. So‘rovnomalar savollari hududdagi ekoturizm loyihalarining iqtisodiy foydasi, ish o‘rinlari yaratish darajasi va mahalliy aholining turizm faoliyatiga jalb qilinishi kabi jihatlarni qamrab oldi. Shuningdek, turizm agentliklari, mehmonxonalar, ekologik tashkilotlar va mahalliy boshqaruv vakillari bilan intervyular o‘tkazilib, loyihalarning amaliy muammolari va rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan. Bu orqali hududlardagi ekoturizm faoliyatining mavjud holati, muammolar va potensial imkoniyatlar batafsil o‘rganildi.

Hududiy raqobatbardoshlikni baholashda indeks metodikasi qo‘llanildi. Har bir hudud iqtisodiy salohiyat, turizm infratuzilmasi, tabiiy resurslarning jozibadorligi va mahalliy aholining bandligiga ko‘ra baholandi. Har bir komponent alohida tahlil qilinib, ularning o‘zaro yig‘ilishi orqali hududiy raqobatbardoshlikning umumiy ko‘rsatkichlari hosil qilindi. Ushbu yondashuv hududlarning turizm sohasidagi imkoniyatlarini aniqlash va ularning raqobatbardoshligini tahlil qilishga imkon berdi. Joyida kuzatuvlar davomida hududlarda ekoturizm loyihalarining barqarorligi va atrof-muhitga ta’siri ham baholandi. Tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, ekologik barqarorlik, turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’siri va hududiy rivojlanish bilan bog‘liq muammolar kuzatildi. Shu bilan birga, kuzatuvlar ekoturizm loyihalarining mahalliy jamoalarga foydasi, turizm salohiyatini oshirishdagi roli va hududiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda ekoturizmning samarali rolini aniqlashga yordam berdi va hududlar uchun kelgusidagi strategik rivojlanish rejalari uchun asos yaratdi. Shu tarzda, metodik yondashuv iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni birlashtirgan holda hududiy raqobatbardoshlikni baholash imkonini berdi va ekoturizm loyihalarining hududiy rivojlanishga ta’sirini aniq ko‘rsatdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning turli hududlarida ekoturizm loyihalari hududiy raqobatbardoshlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Mahalliy aholi, turizm agentliklari va ekologik tashkilotlar vakillari bilan o‘tkazilgan so‘rov va intervyular natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekoturizm loyihalari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda bir qator ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqargan.

Chotqol milliy bog‘i, Zomin tabiat qo‘riqxonasi va Hisor tog‘lari hududlarida turizm loyihalari mahalliy iqtisodiyotga sezilarli daromad keltirgan. Masalan, Chotqol hududida 2018–2022-yillar oralig‘ida turizm xizmatlaridan tushgan daromad 45% ga ortgan. Shu bilan birga, mahalliy aholi bandligi 12% ga oshgan, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish orqali hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Zomin hududida esa hududiy raqobatbardoshlik indeksi 15% ga oshgan bo‘lib, bu yuqori sifatli xizmatlar, infratuzilma va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Hisor tog‘larida esa indeks oshishi, asosan, infratuzilmaning yaxshilanishi va turizm xizmatlarining kengayishi tufayli yuzaga kelgan.

Mahalliy aholi orasida olib borilgan so‘rovlar natijasida respondentlarning 68% ekoturizm loyihalari tufayli oilaviy daromad manbalari diversifikatsiyalanganini bildirgan. Ekoturizm loyihalari mahalliy aholining turizm jarayonlariga jalb qilinishini rag‘batlantirgan. Ularning 54% turizm xizmatlarida ishlash yoki qo‘shimcha daromad manbai yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, loyihalarning ijtimoiy foydasi mahalliy jamiyatning birlashuvini mustahkamlash va madaniy merosni saqlash bilan bog‘liq. Masalan, Zomin hududida turizm bilan shug‘ullanish orqali yoshlar va qishloq aholisining madaniy-ma’naviy tadbirlarda ishtiroki oshgan.

Joylardagi kuzatuvlar davomida hududlarda ekoturizm loyihalarining barqarorligi ham o‘rganildi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qoidalar asosida ekoturizm faoliyati va mahalliy aholining ekologik bilim darajasi hududlarda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Misol uchun, Chotqol va Zomin hududlarida loyihalar suv resurslari va o‘rmon fondiga salbiy ta’sir qilmasligi uchun monitoring tizimlari joriy qilingan. Shuningdek, qishloq joylarda ekologik sayyohlik yo‘laklari belgilangan va chiqindilarni boshqarish tizimi yaxshilangan.

Tadqiqot davomida hududiy raqobatbardoshlik indeksi ham ishlab chiqildi. Indeks iqtisodiy salohiyat, tabiiy resurslarning jozibadorligi, turizm infratuzilmasi va mahalliy bandlik darajasi mezonlari asosida hisoblandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ekoturizm loyihalari yuqori raqobatbardoshlikka ega hududlarda yanada rivojlangan, kamroq rivojlangan hududlarda esa loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri pasaygan. Bu esa hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda strategik jihatdan loyihalarni hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ekoturizm loyihalari hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga, mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga sezilarli hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, loyihalarning samaradorligi hudud infratuzilmasi, mahalliy aholining ishtiroki va tabiiy resurslarni boshqarish tizimining samaradorligiga bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Munozara. Tadqiqot natijalari ekoturizm loyihalari hududiy raqobatbardoshlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Chotqol, Zomin va Hisor hududlarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham hududlar rivojiga hissa qo‘shmoqda. Bu natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, Shveysariyada Alp hududlarida olib borilgan ekoturizm loyihalari mahalliy bandlikni oshirishi va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishi aniqlangan. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlash ekoturizmning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga asos bo‘lishini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda ekoturizmning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy diversifikatsiya: mahalliy aholi turizm orqali qo‘shimcha daromad manbalariga ega bo‘ladi, ish o‘rinlari yaratiladi va hududlar orasidagi raqobat kuchayadi.
- ijtimoiy integratsiya: turizm loyihalarida mahalliy aholi va yoshlarning faol ishtiroki, madaniy merosni saqlash va mahalliy tadbirlarda qatnashish imkoniyati ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.
- ekologik barqarorlik: tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik yo‘laklar va monitoring tizimlari orqali hududlar ekologik jihatdan barqarorlashadi, bu esa hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Biroq natijalar shuni ko‘rsatdiki, ekoturizmning hududiy raqobatbardoshlikka ta’siri bir xilda emas. Kam rivojlangan hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi va mahalliy aholining cheklangan ishtiroki loyihalarning samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun strategik rejalashtirish va mahalliy hamkorlik asosida loyihalarni amalga oshirish zarur.

Shuningdek, boshqa mamlakatlar tajribasi ham o‘rganilganda, samarali ekoturizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Misol uchun, Malayziya va Gruziya hududlarida ekoturizm loyihalari mahalliy bandlikni oshirish va tabiiy resurslarni saqlash orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida ham loyihalarni hududiy xususiyatlar, infratuzilma va mahalliy aholi resurslarini hisobga olgan holda amalga oshirish ekoturizmning samaradorligini oshiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa hududiy rivojlanish strategiyasida ekoturizmni muhim vosita sifatida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekoturizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ekoturizm loyihalari mahalliy iqtisodiyotga daromad keltirib, ish o‘rinlari yaratadi va hududlar orasidagi raqobatni kuchaytiradi. Shu bilan birga, u mahalliy aholi orasida ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va yoshlar faoliyatini rag‘batlantirish imkonini beradi.

Ekoturizmning ekologik ta’siri ham hududlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik monitoring va turizm infratuzilmasini rivojlantirish hududlar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- ekoturizm loyihalarini hududiy xususiyatlar va mavjud infratuzilma darajasini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- mahalliy aholi va yoshlarni turizm faoliyatiga jalb qilish, ularning turizm xizmatlaridagi ishtirokini rag‘batlantirish;
- tabiiy resurslarni himoya qilish va ekologik monitoring tizimini takomillashtirish;
- hududiy raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida turizm loyihalari samaradorligini doimiy baholash va takomillashtirish.

Natijada, ekoturizm hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, hududiy rivojlanish strategiyasida ekoturizm loyihalarini muhim element sifatida hisobga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulomxanov, E., Uktamova, U., & Akramov, S. (2021). Development of Ecotourism in Uzbekistan. Scientific Progress, 2(8), 614–616.
2. Makhmudova, A. (2019). Enhancement of the Ecotourism Efficiency in the Republic of Uzbekistan: Experience of the Developed Countries. Indonesian Journal of Law and Economics Review.
3. Aggelopoulos, S., & Hayitboyev, A. (2016). Agro and Eco-Tourism Development in Rural Areas of Uzbekistan. European Scientific Journal, 12(14), 27–32.
4. Alam, J., Alam, Q. N., & Kalam, A. (2022). Prospects and Challenges for Sustainable Tourism: Evidence from South Asian Countries.
5. Serio, R. G., Giuliani, D., Dickson, M., & Espa, G. (2025). Going Green Across Boundaries: Spatial Effects of Environmental Policies on Tourism Flows.
6. Palomar, R. M. D., & Ylagan, A. D. (2024). Attributes and Competitiveness of Ecotourism Sites, and Tourists’ Behavioral Intention: Basis for an Ecotourism Development Plan for Region VI. International Journal of Research Studies in Management, 12(12), 15–28.
7. Alam, J., Alam, Q. N., & Kalam, A. (2022). Prospects and Challenges for Sustainable Tourism: Evidence from South Asian Countries.
8. Serio, R. G., Giuliani, D., Dickson, M., & Espa, G. (2025). Going Green Across Boundaries: Spatial Effects of Environmental Policies on Tourism Flows.
9. Palomar, R. M. D., & Ylagan, A. D. (2024). Attributes and Competitiveness of Ecotourism Sites, and Tourists’ Behavioral Intention: Basis for an Ecotourism Development Plan for Region VI. International Journal of Research Studies in Management, 12(12), 15–28.
10. Alam, J., Alam, Q. N., & Kalam, A. (2022). Prospects and Challenges for Sustainable Tourism: Evidence from South Asian Countries.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA KO'RSATILADIGAN BANK XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Soatov Abbos Baxromovich
TBC bank mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassisi, Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: baxromovich4@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067009

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlariga (KBS) ko'rsatilayotgan bank xizmatlari va ularni moliyalashtirish tizimi har tomonlama tahlil qilingan. Bank xizmatlarining mavjud holati, tizimli kamchiliklari, hududiy tengsizliklar, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va xalqaro (Osiyo, Yevropa, AQSH) tajribalari asosida solishtirma tahlillar o'tkazildi. Sun'iy intellekt, fintech, islomiy moliyalashtirish kabi innovatsion yechimlar asosida O'zbekiston sharoitida kichik biznesni moliyalashtirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ilmiy asoslangan takliflar orqali kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlarni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes subyektlari (KBS), moliyalashtirish, bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, fintech, islomiy moliyalashtirish, AI reyting tizimi, xalqaro tajriba, O'zbekiston iqtisodiyoti, kredit siyosati.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the banking services provided to small business entities (SBEs) in the Republic of Uzbekistan and the financing system for such services. It examines the current state of banking services, systemic shortcomings, regional disparities, the level of digital technology adoption, and includes a comparative analysis based on international experiences (Asia, Europe, USA). An improved model for financing small businesses in Uzbekistan has been developed, based on innovative solutions such as artificial intelligence, fintech, and Islamic financing. Scientifically grounded proposals have been presented to organize financial services for small businesses more effectively.*

Key words: *small business entities (SBEs), financing, banking services, digital transformation, fintech, Islamic financing, AI-based rating system, international experience, Uzbekistan's economy, credit policy.*

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний анализ банковских услуг, предоставляемых субъектам малого бизнеса (СМБ) в Республике Узбекистан, а также системы их финансирования. Рассмотрены текущее состояние банковских услуг, системные недостатки, региональные диспропорции, уровень внедрения цифровых технологий, а также проведен сравнительный анализ на основе международного опыта*

(Азия, Европа, США). Разработана усовершенствованная модель финансирования малого бизнеса в условиях Узбекистана, основанная на инновационных решениях, таких как искусственный интеллект, финтех и исламское финансирование. Представлены научно обоснованные предложения по эффективной организации финансовых услуг для малого бизнеса.

Ключевые слова: *субъекты малого бизнеса (СМБ), финансирование, банковские услуги, цифровая трансформация, финтех, исламское финансирование, система рейтингов на базе ИИ, международный опыт, экономика Узбекистана, кредитная политика.*

Kirish. Kichik biznes — har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini daromad manbalari bilan ta’minlash va ichki bozorni barqarorlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham bu sektor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olingan. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish manbalarining cheklangani, ayniqsa bank kreditlari olishdagi muammolar, ular faoliyatining kengayishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlari uchun bank xizmatlarining moliyalashtirilish holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3] gi 04.09.2023 yildagi PQ-292 sonli qarorlarida o‘tgan ikki yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari natijasida tadbirkorlik sohasida ko‘plab tizimli muammolar hal etildi, shu jumladan biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta’minlash bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4] 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaroriga muvofiq: “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) amalga oshirilish belgilab qo‘yildi. **Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda bank xizmatlarini ko‘rsatish hamda moliyalashtirish borasida yetarliycha huquqiy hujjatlar mavjud.**

Kichik biznes va uning iqtisodiyotdagi o‘rni Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda katta rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning 1-choragida kichik biznes:

- Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi: **54,7%**
- Aholi bandligidagi ulushi: **75%**
- Eksportdagi ulushi: **27%**

📊 Progress paneli – o‘z yutuqlarini kuzatib borish imkoniyati

O‘zbekiston maktablarida:

-“Kahoot”, “Quizizz”, “ClassDojo”, “Wordwall” kabi vositalar joriy etilmoqda

-“STEAM haftaligi”, “Aqlli o‘yinlar kuni” orqali interaktiv yondashuvlar targ‘ib qilinmoqda

-Fan olimpiadalari va “Edu Games” loyihalari orqali gamifikatsiyalashgan muhit yaratilmoqda

Ta’lim trendlarining mohiyatini quyidagi asosiy tamoyillar orqali tushunish mumkin:

1. Bilim berishdan ko‘ra, o‘rganishni tashkil etish (Bruner, 1961): O‘quvchi bilimni tayyor ko‘rinishda emas, izlanish va tajriba orqali egallaydi.

2. Faoliyat orqali rivojlanish (Vygotskiy, 1934): Yaqin rivojlanish zonasini faollashtiradigan faoliyatlar asosida o‘quvchining salohiyati yuzaga chiqadi.

3. Shaxsga yo‘naltirilganlik (Carl Rogers, 1969):Ta’lim motivatsiyasi va samaradorligi o‘quvchining ichki ehtiyojlariga mos kelgan holda ortadi.

4. Texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish (OECD, 2023): XXI asr fuqorosi nafaqat bilimga ega, balki texnologik savodxon, axborotni tahlil qila oladigan, ijtimoiy mas’uliyatli bo‘lishi zarur.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish uchun yangi pedagogik yondashuv va texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda.Zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar va ularning nazariy-metodologik asoslari keng qamrovda tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, konstruktivizm, sotsiokonstruktivizm, faol ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv kabi zamonaviy nazariyalar asosida shakllangan metodlar – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jon Dyui, Lev Vygotskiy, J. Bruner kabi pedagog olimlarning g‘oyalari esa bugungi ta’limda faol o‘quvchi konsepsiyasi, yaqin rivojlanish zonasi, konstruktiv o‘rganish muhiti kabi tushunchalarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, ta’limdagi global tendensiyalar – raqamli ta’lim, soft skills o‘rgatish, STEAM, gamifikatsiya, sun’iy intellektdan foydalanish, lifelong learning (umr bo‘yi ta’lim) kabi yondashuvlar bugungi kunda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va real hayotga tayyorgarligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ularning shaxsga yo‘naltirilganligi, o‘quvchining faolligini ta’minlashi va o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojini rag‘batlantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. O‘qituvchi esa endilikda bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining o‘z bilimini mustaqil egallashiga ko‘maklashuvchi, yo‘naltiruvchi, muhit yaratuvchi subyektga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar nafaqat o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish, balki o‘quvchining ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, kommunikativ ko‘nikmalari, raqamli savodxonligi va hayotga tayyorgarligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vygotskiy,1978.’’Mind in society’’
2. Bruner, 1960. "The Process of Education"
3. Slavin, 1995. "Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice"
4. Khutorskoy, 2003. "Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannoy obrazovatel'noy modeli"
5. Zimnyaya, 2004. "Pedagogicheskaya psikhologiya"
6. Amonov Sh., 2019. "Pedagogik texnologiyalar asoslari" https://www.researchgate.net/publication/368830465_pedagogika_fanlar_bo‘yicha_maqolalar_to‘plami_-iii_global_dunyoda_ilm-fan_va_ta'limdagi_innovatsion_rivojlanishning_zamonaviy_trendlari
7. https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/11917/10025/9817

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

ESP O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MULTIMODAL STRATEGIYALARNI QO‘LLASH

Xabirova Zulfiya
Toshkent shahridagi Adju universiteti
v.b. dotsent, mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067365

Annotatsiya. *Ushbu maqola sun’iy intellektga (SI) asoslangan multimodal strategiyalar bilan maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini (ESP) o‘qitishni qanday kuchaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar SI ni dars jarayoniga integratsiyallash orqali, ya’ni nutqni aniqlash, tasvirni qayta ishlash, moslashuvchan o‘rganish tizimlari va virtual agentlarni qo ‘llash orqali til o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirishi va boyitishi mumkin. Tadqiqot ESPda multimodallikning nazariy asoslarini ko‘rib chiqadi, amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan misollar keltiriladi va olingan natijalarni sinfda qo‘llash muhokama qilinadi. Tadqiqotdagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan multimodal muhitlar motivatsiya, ishtirok etish va sohaga xos bo ‘lgan terminologiyani o‘zlashtirishni sezilarli darajada oshiradi. Kelajakdagi tadqiqot va pedagogik integratsiyaga ta’siri muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ESP, multimodal strategiyalar, til o‘rganish, adaptiv o‘rganish, raqamli vositalar.*

Abstract. *This article explores how Artificial Intelligence (AI) driven multimodal strategies enhance English for Specific Purposes (ESP) instruction. By integrating AI tools such as speech recognition, image processing, adaptive learning systems, and virtual agents that educators can personalize and enrich language learning. The study reviews the theoretical foundation of multimodality in ESP, presents examples of practical implementation, and discusses the results of classroom-based applications. Findings indicate that AI supported multimodal environments significantly improve learner motivation, engagement, and mastery of domain-specific terminology. Implications for future research and pedagogical integration are discussed.*

Key words: *artificial intelligence, ESP, multimodal strategies, language learning, adaptive learning, digital tools.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается, как мультимодальные стратегии, основанные на искусственном интеллекте (ИИ), улучшают преподавание английского языка для специальных целей (ESP). Интегрируя такие инструменты ИИ, как распознавание речи, обработка изображений, адаптивные системы обучения и виртуальные агенты, преподаватели могут персонализировать и обогатить процесс*

изучения языка. В исследовании рассматриваются теоретические основы мультимодальности в ESP, приводятся примеры практической реализации и обсуждаются результаты применения в классе. Выводы показывают, что мультимодальные среды с поддержкой ИИ значительно повышают мотивацию, вовлеченность и освоение терминологии, специфичной для данной области. Обсуждаются последствия для будущих исследований и педагогической интеграции.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, ESP, мультимодальные стратегии, изучение языка, адаптивное обучение, цифровые инструменты.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat texnologiya sohasini, balki til o‘qitish metodikasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ingliz tili, ayniqsa, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), global mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobat qilishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Shuning uchun, o‘quv jarayoniga sun’iy intellekt (SI) va multimodal strategiyalarni tatbiq etish an’anaviy uslublar bilan raqobatlasha oladigan, hatto ularni ortda qoldiradigan yangi pedagogik paradigma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Multimodal yondashuv bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi kanallarini faollashtirib, o‘quvchini mavzuga chuqurroq jalb qiladi va ularning ma’lumotni saqlash hamda qayta ishlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Darhaqiqat, raqamli ta’limga global siljish, xususan, muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot va biznes kabi sohalarda maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining (ESP) ahamiyatini oshirdi. Lekin shunisi achinarliki, hozirda chop etilgan matnlar va o‘qituvchi faoliyatiga asoslangan an’anaviy ESP yo‘riqnomasi ko‘pincha turli xil ehtiyojlarga ega bo‘lgan talabalarni jalb qilish va ularning moslashishni ta’minlay olmaydi. Sun’iy intellekt (SI) va multimodal ta’limning paydo bo‘lishi ushbu muammolarga innovatsion echimlarni taklif qiladi.

Multimodal o‘rganish vizual, eshitish, matn va kinestetik kabi bir nechta kanallar orqali kontentni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Kress va van Leeuwen (2001) multimodal diskurs nazariyasiga ko‘ra, o‘quv jarayonida turli modalliklarning uyg‘unlashuvi kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi. Mayerning(2009) kognitiv yuklama nazariyasi esa shuni ta’kidlaydiki, visual va audio materiallar o‘zaro uyg‘un qo‘llanganda, o‘quvchining bilimni o‘zlashtirish sifati ortadi. SI texnologiyalari ushbu nazariyalarni amalda qo‘llash imkonini beradi, chunki ularo ‘quvchining ehtiyojiga qarab kontentni moslashtira oladi. Masalan, elektrotexnika yo‘nalishidagi talaba murakkab elektr sxemasini o‘rganayotganda, SI asosidagi animatsiyalar va ovozli tushuntirishlar yordamida tushunchani tezroq anglaydi. Bu multimodal integratsiya aynanESP kabi texnik sohalarda katta ahamiyat kasb etadi.

UShbu tadqiqotda ESP yo‘riqnomasida Siga asoslangan multimodal usullarning ta’sirini tahlil qilish uchun aralash usullardan foydalanildi.

Birinchi navbatda, Hutchinson va Watersning (1987) ESP dizayni bo‘yicha ishi, Mayerning (2009) multimediali o‘rganish bo‘yicha ishi va ta’limda SI bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlari (Xolms va boshq., 2019) kabi asosiy nazariy ishlar tahlil qilindi. Bularning barchasi samarali multimodal ESP o‘rganishning asosiy komponentlarini aniqlash uchun asos yaratdi.

So‘ng, O‘zbekiston universitetlarida, jumladan, Toshkent shahridagi Adju universiteti, Millat Umidi universiteti va Amaliy fanlar universitetida SI vositalarining ESP sinflarida tatbiq etilgani bo‘yicha uchta amaliy tadqiqotlar o‘rganildi. Asboblar SIga asoslangan yozish yordamchilarini (masalan, Grammarly), nutqni aniqlash ilovalarini (masalan, ELSA Speak) va kontent yaratish platformalarini (masalan, SI vizualizatsiyasiga ega Canva) o‘z ichiga olgan.

Eksperimental tadqiqot O‘zbekiston universitetlarining “Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi” fakultetining 2-kurs 84 nafar talabalari bilan o‘tkazildi. Eksperimental guruh (n=42) SI bilan takomillashtirilgan ESP materiallaridan (subtitrli videolar, texnik lug‘atni o‘rganish uchun SI chatboti, interaktiv kodlash simulyatorlari) foydalangan, nazorat guruhi (n=42) esa 10 hafta davomida an’anaviy darslik asosidagi o‘quv dasturiga amal qilgan. Ma’lumotlar quyidagi usullar yordamida to‘plangan:

- Kurs oldidan va keyin lug‘atni o‘zlashtirishni baholash uchun testlar;
- Talabalarning motivatsiyasi bo‘yicha so‘rovlar;
- Sinf dinamikasi haqida o‘qituvchi intervyusi;

Natijalar. Eksperimental guruh texnik lug‘atni yodlashda 37% ga yaxshilanganligini ko‘rsatdi, nazorat guruhidagi 18%. Talabalarning ta’kidlashicha, multimodal o‘qitishni kiritish, xususan, videolar, real vaqtda suhbat vositalari va simulyatsiyalar - mavhum tushunchalarni tushunish va yodlashga yordam beradi.

Eksperimental guruhdagi talabalarning 89 foizi darslarning interfaol va vizual tabiati tufayli o‘zlarini yanada faolroq his qilishgan. Texnik savollar berish uchun chatbotlar va SI tomonidan yaratilgan infografika kabi vositalar ayniqsa foydali deb topildi.

O‘qituvchining ta’kidlashicha, sun’iy intellektga asoslangan multimodal vositalar turli tillarni bilish darajalarini hal qilishga yordam bergan. Ingliz tilini past darajada biladigan talabalar tushunishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun vizual va interaktiv vositalardan foydalanganlar.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimodal SI vositalaridan foydalangan talabalar nafaqat lug‘at boyligini oshirdi, balki mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari ham rivojlandi. Ular yangi terminologiyani mustaqil izlab topish, SI chatbotlaridan izoh olish va murakkab matnlarni tahlil qilish kabi faol o‘quv strategiyalarini qo‘llashni o‘zlashtirdi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar ham darsni tayyorlash jarayonida samaradorlikni oshirishdi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida slayd va infografika tayyorlash va ularni talaba darajasiga moslashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, quyidagi qiyinchiliklarga duch kelindi:

- Dastlabki sozlash va o‘qituvchini tayyorlash vaqti;
- Dastlab barqaror internetdan foydalanish imkoniyati cheklangandi;
- SI vositalarining ishlashida vaqti-vaqti bilan texnik nosozliklar.

Munozara. Topilmalar sun’iy intellektga asoslangan multimodal strategiyalar ESP yo‘riqnomasi uchun katta foyda keltirishini tasdiqlaydi. SIni shaxsiylashtirish va multimodal uslubni qo‘llash o‘rtasidagi sinergiya o‘qitish sifatini va o‘quvchilarning avtonomiyasini oshiradi.

Natijalar Mayerning (2009) kognitiv multimedia ta’lim nazariyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, odamlar faqat so‘zlardan ko‘ra video va rasmlardan yaxshiroq o‘rganadilar. SI ushbu materiallarni o‘quvchining xohishiga ko‘ra moslashtirganda, tushunish yanada yaxshilanadi. Bundan tashqari, ESPga o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv (Hutchinson & Waters, 1987) moslashuvchan SI tizimlari bilan ham mos keladi.

ESP o ‘qitishda SI vositalaridan foydalanish o‘qituvchidan talabaga yo‘naltirilgan yondashuvga aylantiradi (learner centered approach) va bu o‘quvchilarga o‘z ta’limini nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv raqamli pedagogika va umrbod ta’lim sohasidagi hozirgi tendentsiyalarga mos keladi.

Shuningdek, SI asosidagi multimodal yondashuvning eng katta afzalliklaridan biri bu inklyuziv ta’lim imkoniyatidir. Turli darajadagi til bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalar bir xil darsda teng ravishda ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishadi. Past darajadagi talabalar vizual va audio yordamlar orqali materialni tushunsa, yuqori darajadagilar qo‘shimcha interaktiv topshiriqlar orqali bilimini chuqurlashtiradi.

ESP o‘qituvchilari quyidagi strategiyalardan foydalanishlari mumkin:

- Lug‘at va tushunchalarni kengaytirish uchun Quizlet, ChatGPT yoki Canva kabi sun’iy intellektga ega platformalarni birgalikda qo ‘llash;

- Talaffuz va tinglashni mashq qilish uchun nutqni aniqlash ilovalaridan foydalanish;

- Til va kontent integratsiyasini chuqurlashtirish uchun multimodal loyihalarni (masalan, SI tomonidan yaratilgan infografika yoki hikoyali slaydlar) qo‘shish.

Biroq, bu yondashuvni keng joriy etish uchun quyidagi masalalar hal etilishi zarur:
1. O‘qituvchilarni SI texnologiyalariga o‘qitish bu nafaqat texnik bilim, balki pedagogik moslashuvchanlikni ham talab qiladi.

2. Internet va zamonaviy qurilmalar multimodal resurslardan to‘liq foydalanish uchun barqaror bo‘lishi shart.

3. Ma’lumot xavfsizligi ta’minlamogi‘i lozim, ya’ni SI vositalaridan foydalanishda talabalarning shaxsiy ma’lumotlari himoyalanishi lozim.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, tadqiqotning namunaviy hajmi nisbatan kichik va faqat ESP (elektrotexnika va kompyuter muhandisligi) sohasi bilan cheklangan. Kattaroq, ko‘p institutsional tadqiqot ushbu topilmalarni fanlar bo‘yicha tasdiqlashga yordam bergan bo‘lar edi.

Ushbu natijalarni inobatga olib, quyidagi tavsiyalarni qo‘llashlik o‘z navbatida ESP kurslarida SI yordamida multimodal yordamida o‘qitishlik ingliz tilini o’zlashtirishda muhim samara berishi aniq bo‘ldi:

- ESP kurslarida loyiha asosidagi yondashuvni joriy etish, bunda talabalar SI yordamida multimodal taqdimotlar tayyorlashlari lozim;

- SI vositalarini nafaqat dars davomida, balki darsdan tashqari mustaqil o‘rganishda ham qo‘llashda rag‘batlantirish kerak;

- O‘zbekiston sharoitiga mos mahalliy SI ilovalarini ishlab chiqish, bunda milliy terminologiya va madaniy konteks hisobga olinishi lozim.

Xulosa. Sun’iy intellektga asoslangan multimodal strategiyalar nafaqat ESP o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarni XXI asrning global mehnat bozoriga tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Sun’iy intellektga asoslangan multimodal o‘rganish ESP o ‘qitishni yanada qiziqarli, moslashuvchan va samarali qilish orqali yuqori natijaga erishish potentsialiga ega. Global ishchi kuchining talablari o‘zgargan sari, til ta’limiga bo‘lgan yondashuvlarimiz ham o‘zgarishi kerak. Sun’iy intellekt va multimodal usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar talabalarini o‘z sohalarida professional muloqotga yaxshiroq tayyorlashlari mumkin. Shunday ekan, kelajakda ESP ta’limining muvaffaqiyati SI texnologiyalari va multimodal yondashuvni uzluksiz integratsiyalashga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.

2. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
3. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. Arnold.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.
5. Mayer, R. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

YASHIL IQTISODIYOT MUNOZARALARIDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI

Xakimov Asadbek Baxrom o'g'li
Adju University in Tashkent talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067382

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi va uning zamonaviy ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligi keng yoritildi. Yashil iqtisodiyot bugungi global muammolarning yechimi sifatida ko'rilmoqda. Unda iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlandi. Maqolada Tim Jacksonning "Prosperity without Growth" asaridagi "o'sish afsonasi" g'oyasi, farovonlikni qayta talqin qilish va ta'limning roli tahlil qilindi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Green Jobs Training Guidebook" qo'llanmasidan foydalanilib, yashil kasblar, adolatli o'tish va malaka oshirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi asosida yashil iqtisodiyotga oid islohotlar ham tahlil qilindi. Natijada zamonaviy ta'limning ekologik ongni shakllantirish, yoshlarni yangi kasblarga tayyorlash va barqaror rivojlanish g'oyalarini jamiyatga singdirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, zamonaviy ta'lim, ekologik ong, yashil kasblar, barqaror rivojlanish, adolatli o'tish.*

Abstract. *This article examines the concept of the green economy and its relation to modern education. The green economy is described as a paradigm that integrates economic growth with ecological sustainability. The study highlights the essential role of education in developing environmental awareness, preparing youth for new professions, and embedding sustainable development principles in society. International sources such as Tim Jackson's "Prosperity without Growth" and the ILO's "Green Jobs Training Guidebook" are analyzed, as well as Uzbekistan's national strategy up to 2030. The findings reveal that modern education plays a central role in building the green economy, fostering responsible values, and ensuring long-term prosperity.*

Key words: *green economy, modern education, ecological awareness, green jobs, sustainable development, just transition.*

Аннотация. *В статье рассматривается понятие «зелёной экономики» и её связь с современным образованием. Зелёная экономика показана как парадигма, объединяющая экономический рост и экологическую устойчивость. Особое внимание уделено роли образования в формировании экологического сознания, подготовке молодёжи к новым профессиям и внедрении принципов устойчивого развития в общество. Проанализированы международные источники, включая книгу Тима Джексона «Prosperity without Growth» и*

руководство МОТ «Green Jobs Training Guidebook», а также стратегия Республики Узбекистан по переходу к зелёной экономике до 2030 года. В результате сделан вывод, что современное образование является фундаментом зелёной экономики и обеспечивает подготовку ответственного поколения, способного обеспечить устойчивое будущее.

Ключевые слова: *зелёная экономика, современное образование, экологическое сознание, зелёные профессии, устойчивое развитие, справедливый переход.*

Kirish. XXI asrda insoniyat yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davr taraqqiyot, texnologiyalar, sanoat yutuqlari va bir vaqtning o‘zida global muammolar davri hisoblanadi. Agar o‘tgan asrlarda jamiyatning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni ko‘paytirish va iqtisodiy o‘sishga erishish bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bu modelning salbiy oqibatlari tobora yaqqol sezilmoqda. Havo ifloslanishi, global isish, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi, chiqindilar muammosi, biologik xilma-xillikning qisqarishi – bularning barchasi insoniyat kelajagini xavf ostiga qo‘ymoqda. O‘zbekiston misolida ham bu jarayonlarni kuzatish mumkin. Aral dengizining qurishi butun dunyoga ma’lum ekologik fojia bo‘lib, millionlab odamlarning hayotiga ta’sir qildi. Yoz tobora jazirama bo‘lib bormoqda, qishda energiya tanqisligi muammosi paydo bo‘lmoqda. Shaharlar havosi avtomobillar ko‘pligi va sanoat chiqindilari tufayli og‘irlashmoqda. Bu holatlar yashil iqtisodiyotga o‘tishni kechiktirib bo‘lmas jarayonga aylantirmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o‘sishni tabiatni muhofaza qilish bilan uyg‘unlashtirishdir. U iqtisodiy foyda bilan birga ekologik barqarorlikni, ijtimoiy farovonlikni va kelajak avlod manfaatlarini hisobga oladi. Ammo yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati faqat siyosiy qarorlar va texnologiyalar bilan emas, balki insonlarning ongida yuz beradigan o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Bu o‘zgarishlarni esa ta’lim shakllantiradi. Ta’lim yoshlarni yangi kasblarga tayyorlaydi, ekologik ongni rivojlantiradi, mas’uliyatli fuqarolikni tarbiyalaydi. O‘zbekistonning “2030 strategiyasi” ham bu masalaga alohida urg‘u beradi. Unda qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, yashil transport, suv resurslarini tejash, ekologik turizmni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar belgilangan. Biroq bularning barchasi ta’limsiz amalga oshmaydi. Demak, yashil iqtisodiyotning yuragi ta’limdir.

Nazariy asoslar. Yashil iqtisodiyot nazariyasi bugungi kunda jahon ilmiy doiralarida keng muhokama qilinmoqda. U nafaqat iqtisodiy fan, balki ekologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va hatto falsafa bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki yashil iqtisodiyot faqat moddiy ishlab chiqarish yoki texnologiya masalasi emas, balki insonning tabiat bilan munosabati, uning qadriyatlari va ma’naviy dunyosi masalasidir. Bu nazariyaning shakllanishiga ko‘plab olimlar o‘z hissasini qo‘shgan. Masalan, Brundtland komissiyasining 1987-yildagi mashhur “Our Common Future” hisobotida “barqaror rivojlanish” tushunchasi keng ilmiy muomalaga kiritilgan edi. Unga ko‘ra, “barqaror rivojlanish – bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan kelajak avlodning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamaydigan rivojlanishdir”. Ushbu ta’rif yashil iqtisodiyotning nazariy asosiga aylandi. Keyinchalik amerikalik iqtisodchi Herman Daly “ekologik iqtisodiyot” tushunchasini ilgari surib, iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bog‘liqligini, ekologik cheklovlar mavjudligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, iqtisodiyot tabiat tizimining kichik bir qismidir, shuning uchun u ekologik qonuniyatlarga bo‘ysunishi shart. Shuningdek, Tim Jacksonning “Prosperity without Growth” asari ham nazariy asoslar ichida alohida o‘rin tutadi. Jackson o‘zining asarida iqtisodiy o‘sishning doimiy bo‘lishi mumkin emasligini, tabiat resurslari chegaralanganini va insoniyat

doimo “ko‘proq ishlab chiqarish va ko‘proq iste’mol qilish”ga intilib tabiatni vayron qilayotganini tanqid qiladi. Unga ko‘ra, haqiqiy farovonlik moddiy boylikda emas, balki insonning sog‘lom va barqaror muhitda yashashida, ijtimoiy aloqalarda, ma’naviy qoniqishda namoyon bo‘ladi. Bu fikr yoshlar uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki ularni ta’lim tizimi moddiy manfaatni emas, balki ekologik va ijtimoiy qadriyatlarni ham qadrlashga o‘rgatishi kerak. Jacksonning ta’limga oid qarashlari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat texnologiyalarni o‘zgartirish, balki inson ongini o‘zgartirish masalasidir. Bu jarayonning markazida esa ta’lim tizimi turadi. Shu nuqtai nazardan, nazariy asoslar shuni isbotlaydiki, yashil iqtisodiyot va ta’lim bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Tadqiqot usullari. Ushbu maqola tayyorlashda bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Asosiy metod kontent-tahlil usuli bo‘ldi. Tim Jacksonning asari, Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Green Jobs Training Guidebook” qo‘llanmasi, O‘zbekiston Prezidentining PF-16-sonli Farmoni va boshqa manbalar tahlil qilinib, ularning g‘oyalari qiyosiy o‘rganildi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil usuli ham qo‘llanildi. Masalan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlarining yashil iqtisodiyot bo‘yicha tajribalari O‘zbekiston sharoiti bilan taqqoslab o‘rganildi. Germaniyada “Energiewende” dasturi orqali energiya tizimini qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tkazish jarayonida ta’lim muhim rol o‘ynadi. Yaponiyada esa “ekologik maktablar” dasturi orqali bolalar kichik yoshdan ekologik tarbiya olishmoqda. Janubiy Koreyada “yashil texnologiyalar universitetlari” tashkil qilinib, yosh mutaxassislar yangi sohalarga tayyorlanmoqda. O‘zbekistonda esa “2030 strategiyasi” doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish vazifasi qo‘yilgan. Shu sababli, xalqaro tajribani o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish ushbu maqolada asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Bundan tashqari, analitik yondashuv ham qo‘llanilib, turli manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va umumiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, amaliy kuzatish va statistik ma’lumotlar tahlili ham qo‘shimcha manba sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida bir qator muhim natijalarga erishildi. Birinchidan, yashil iqtisodiyot yangi kasblar tizimini shakllantiradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya muhandislari, chiqindilarni qayta ishlash texnologlari, ekologik transport injenerlari, ekologik turizm mutaxassislari – bularning barchasi kelajak kasblari bo‘lib, ular uchun talab tobora oshib bormoqda. Ikkinchidan, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko‘mir sanoatida ishlayotgan ishchilarni birdaniga ishsiz qoldirish emas, balki ularni qayta tayyorlab, yangi yashil sohalarda ishlash imkoniyatini yaratish zarur. Bu “adolatli o‘tish” tamoyilining mazmunini tashkil etadi. Uchinchidan, O‘zbekistonning “2030 strategiyasi” doirasida yashil iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari belgilangan: qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini modernizatsiya qilish, ekologik transportni joriy etish, suv resurslarini tejash, ekologik turizmni rivojlantirish va aholining ekologik ongini oshirish. To‘rtinchidan, xalqaro tajribalar ta’limning hal qiluvchi rolini isbotlab bermoqda. Masalan, Germaniyada universitetlarda “barqaror rivojlanish” fanlari keng joriy qilingan, Yaponiyada maktab dasturlarida ekologiya alohida o‘rin olgan, Janubiy Koreyada esa davlat siyosati yoshlarni yashil texnologiyalar sohasiga yo‘naltirmoqda. Bu misollar O‘zbekiston uchun ham muhimdir. Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati bevosita ta’lim tizimiga bog‘liq.

Tahlil va muhokama. Yashil iqtisodiyot g‘oyasini tahlil qilar ekanmiz, uning asosiy mazmuni shundaki, iqtisodiy taraqqiyot faqat moddiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki inson hayoti sifati bilan ham o‘lchanishi kerak. Shu nuqtai nazardan, Tim Jacksonning “o‘sish

afsonasi” haqidagi g‘oyalari chuqur falsafiy va amaliy ahamiyatga ega. U shuni ko‘rsatadiki, insoniyat doimo ishlab chiqarishni oshirishga intilib kelgan, ammo bu jarayon ekologik inqirozlarni kuchaytirgan. Agar bu model davom etsa, insoniyat kelajak avlodni xavf ostiga qo‘yadi. Shunday ekan, yashil iqtisodiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra “o‘sishdan tashqaridagi farovonlik” g‘oyasiga asoslanadi. Bu farovonlik tushunchasi faqat pul va iste’mol bilan cheklanmaydi, balki sof havo, toza suv, tinch muhit, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy qoniqishni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim bu jarayonda eng muhim vositadir. Chunki iqtisodiy modelni o‘zgartirish uchun avvalo insonlarning ongini o‘zgartirish kerak. Insonlar ekologik qadriyatlarga amal qilsa, yashil iqtisodiyot tabiiy jarayonga aylanadi. Agar odamlar ekologik ongdan yiroq bo‘lsa, eng ilg‘or texnologiyalar ham natija bermaydi. Shu sababli ta’lim yashil iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. Germaniya tajribasini olaylik. U yerda “Energiewende” dasturi orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish katta sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Ammo bu jarayon faqat texnologiyalar evaziga emas, balki ta’lim orqali amalga oshmoqda. Maktablarda ekologiya darslari keng yo‘lga qo‘yilgan, universitetlarda “barqaror rivojlanish” bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilingan. Natijada jamiyat ekologik ongli bo‘lib, energiya tizimida o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Yaponiyada esa ekologik muammolarni bolalarga kichik yoshdan o‘rgatish an’anaga aylangan. Masalan, “eko-maktablar” dasturi orqali o‘quvchilar chiqindilarni ajratishni, suvni tejashni, energiyani samarali ishlatishni bolaligidan o‘rganishadi. Bu yondashuv yosh avlod ongida ekologik qadriyatlarni shakllantiradi. Janubiy Koreyada “yashil texnologiyalar universitetlari” tashkil etilib, yosh mutaxassislar yangi kasblarga tayyorlanmoqda. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim yashil iqtisodiyotga o‘tishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston misolida ham bu masala dolzarbdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ekologik muammolar ko‘p. Aral fojiasi mintaqa hayotini izdan chiqargan. Havoning ifloslanishi, chiqindilar muammosi, suv resurslarining kamayishi, energiya tanqisligi – bularning barchasi yashil iqtisodiyotga o‘tishni talab qilmoqda. Lekin bu jarayonning muvaffaqiyati ta’lim tizimiga bog‘liq. Maktablarda ekologiya fanini kuchaytirish, universitetlarda “yashil iqtisodiyot”, “barqaror rivojlanish” kabi kurslarni joriy etish, yoshlarni amaliy loyihalarga jalb qilish zarur. Misol uchun, talabalar ekologik startaplarda qatnashsa, ular nafaqat nazariy bilim oladi, balki amaliy ko‘nikma ham hosil qiladi. Bu jarayon yoshlarning tashabbuskor bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, malaka oshirish masalasi ham dolzarb. O‘zbekiston sanoatida ko‘plab eski sohalarda ishlovchilar mavjud. Masalan, ko‘mir sanoati yoki an’anaviy energetika sohalarida ishlayotgan ishchilarni birdaniga ishsiz qoldirish mumkin emas. Ularni qayta tayyorlab, yangi yashil sohalarda ishlash imkonini yaratish kerak. Bu “adolatli o‘tish” tamoyilining mohiyatidir. Ta’lim tizimi esa bu jarayonning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning “2030 strategiyasi” to‘g‘ri yo‘nalishni belgilagan. Unda qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, yashil transport, ekologik turizm kabi sohalar rivojlanishi ko‘zda tutilgan. Lekin strategiyaning muvaffaqiyati yosh avlodni tayyorlashga, ularning ekologik ongini rivojlantirishga bog‘liq bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotning muhokamasida yana bir muhim jihat – qadriyatlar masalasidir. Chunki bu nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy inqilobdir. Agar inson tabiatni faqat resurs sifatida ko‘rsa, u hech qachon yashil iqtisodiyot tamoyillariga amal qilmaydi. Agar inson tabiatni o‘zining hayotiy hamrohi sifatida ko‘rsa, u ekologik qadriyatlarga amal qiladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning markazida inson qadriyatlari turadi. Bu qadriyatlarni shakllantirish esa ta’lim tizimi zimmasidagi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot nafaqat yangi iqtisodiy model, balki jamiyatning yangi qadriyatlar tizimidir. Uning muvaffaqiyati texnologiyalarga emas, balki inson ongiga, ta’lim tizimiga bog‘liqdir. Tim Jacksonning “Prosperity without Growth” asari nazariy asoslarni beradi, XMTning “Green Jobs Training Guidebook” qo‘llanmasi amaliy jihatlarni ko‘rsatadi, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya tajribalari esa ta’limning hal qiluvchi rolini isbotlaydi. O‘zbekistonning “2030 strategiyasi” ham yashil iqtisodiyotga o‘tishni milliy maqsad sifatida belgilagan. Endi vazifa bu strategiyani amalga oshirishda ta’lim tizimini kuchaytirishdir. Agar ta’lim ekologik ongni shakllantirsa, yoshlarni yangi kasblarga tayyorlasa, ularni mas’uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalasa, yashil iqtisodiyot real hayotga aylanadi. Aks holda, yashil iqtisodiyot shunchaki shior bo‘lib qoladi. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim yashil iqtisodiyotning yuragi, poydevori va kelajagidir. Yashil iqtisodiyot va ta’lim bir-biridan ajralmasdir. Ta’limsiz yashil iqtisodiyot bo‘lmaydi, yashil iqtisodiyotsiz esa kelajak barqaror bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jackson, T. Prosperity without Growth: Economics for a Finite Planet. London: Sustainable Development Commission, 2009.
2. International Labour Organization (ILO). Green Jobs Training Guidebook. Geneva: ILO, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. https://lex.uz/docs/-7477505
4. Wikipedia. “Yashil iqtisodiyot.” Uzbek Wikipedia. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
5. Wikipedia. “Barqaror rivojlanish.” Uzbek Wikipedia. https://uz.wikipedia.org/wiki/Barqaror_rivojlanish
6. Daly, H. Steady-State Economics. Washington, D.C.: Island Press, 1991.
7. Brundtland Commission. Our Common Future. United Nations, 1987.

18.00.00 – ARCHITECTURAL SCIENCES

* * *

18.00.00 - ARXITEKTURA FANLARI

* * *

18.00.00 – АРХИТЕКТУРА

THE FUTURE OF ARCHITECTURE IN UZBEKISTAN: SUSTAINABLE DESIGN AND URBAN INNOVATION IN A CHANGING CLIMATE

Eshnazarov Jakhongir
Ajou University in Tashkent, Architecture Faculty
Tashkent, Uzbekistan
e-mail: ajouplatform@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067413

Abstract. *This article looks at how sustainability, new ideas, and cultural identity come together in the future of architecture in Uzbekistan. With more people moving to cities and facing environmental issues, places like Tashkent and other old cities need designs that can change and respond to the climate. The paper checks what's happening with sustainable architecture worldwide, finds chances for Uzbekistan, and suggests ways to mix old traditions with new ideas, making cities that are strong and good to live in.*

Introduction

Architecture in Uzbekistan is going through big changes. Cities are growing quickly, there are more climate problems, and there's a need to protect cultural heritage. In Tashkent, a modern city with old Soviet buildings and Central Asian traditions, architecture plays an important role in shaping identity and making cities strong. At the same time, places like Khiva, Samarkand, and Bukhara are facing the challenge of changing while keeping their real feel. This article looks at these challenges and explores how sustainable designs and new urban ideas can shape the future of architecture in Uzbekistan.

Global Architectural Trends

All around the world, architecture is moving towards being more sustainable, using technology, and focusing on people. Some key trends are: - Using green buildings and making buildings that use no more energy than they produce - Creating smart cities and using digital tools

- Reusing old buildings in new ways - Using designs that connect with nature and the climate Beyond just trends, architecture is also responding to big social and environmental problems.Climate change has made people push for more efficient energy systems, while digital tools like BIM and AI are changing how cities are planned. In many places, people are asking for more public spaces, better walkable areas, and cities that are fair and diverse. These global changes are affecting how countries like Uzbekistan face their own city problems.

Uzbekistan's Architectural Context

Uzbekistan's architecture shows a rich history. Cities like Samarkand and Khiva are UNESCO sites with beautiful Islamic buildings, mosaics, and courtyard designs that naturally respond to the climate. But modern cities, especially Tashkent, are changing quickly. This brings

chances for new ideas but also risks of losing the city's unique look. A big question is how to mix modern construction with keeping old buildings safe. The Soviet era left behind large, strong buildings, but now developers are building glass towers and shopping malls fast. Finding the right balance between history and new ideas will shape the future of Uzbekistan’s architecture. Young architects, trained at local universities and abroad, will help shape this effort.

Sustainable Urban Innovation

The future of Uzbekistan’s architecture is about making cities sustainable. This includes using solar power, managing water better, and adding green areas. For example, solar panels on rooftops, green spaces, and natural cooling systems can help save energy. In hot and dry areas, designs inspired by traditional neighborhoods can build strong communities while helping the environment.

City planners are also changing how people move around. Expanding Tashkent’s metro system and adding bike lanes can reduce car use. This helps the air, lowers traffic, and makes cities healthier. At the same time, smart tools like sensors and data-driven planning help cities get ready for climate problems like extreme heat or water shortages.

The Role of Education and Research

Universities in Uzbekistan are realizing how important it is to prepare architects for the future. Schools like Ajou University in Tashkent and the Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering are adding classes on sustainability, energy efficiency, and protecting old buildings. Workshops and international projects help students learn from global best practices.

Research on local materials is very important. For example, adobe and clay, which have been used for centuries in Central Asia, are being considered as eco-friendly alternatives to concrete. Young researchers are also experimenting with new materials that mix modern strength with traditional beauty

Challenges

Although there are opportunities, there are still challenges. These include not enough money, a lack of public knowledge about sustainable design, and a need for training in green technologies. Protecting old sites means finding the right balance between updating and keeping their real feel. Also, climate change is making it even more urgent to use strong, resilient strategies, since rising temperatures and water shortages are hurting city life in Uzbekistan. Another challenge is financing. Many green technologies cost a lot to start with, so it can be hard for local builders to use them. Without support from the government or partnerships between public and private groups, it will be slow to adopt these green ideas. Plus, fast city growth sometimes focuses on quick money instead of long-term sustainability.

Future Outlook

Uzbekistan’s future in architecture can be a good example of mixing tradition with modern ideas.

Universities, government agencies, and private developers need to work together to support sustainable practices. International partnerships and sharing knowledge can also speed up progress. If Uzbekistan can mix its cultural heritage with global trends, it can become a leader in smart, climate-friendly architecture in Central Asia. By making strong homes, green public areas, and smart city systems, the country can build cities that not only survive climate change but also do well.

Conclusion

Architecture is more than just buildings—it's about how people live, connect, and fit into their environment. For Uzbekistan, this challenge is also an opportunity to embrace sustainability and innovation while keeping its unique culture. By combining global trends with local needs, Uzbekistan can build cities that are strong, open, and inspiring for future generations.

Ultimately, the role of the next generation of architects is to imagine a future where city growth and heritage are not in conflict but work together to move forward.If they do this, Uzbekistan will become a strong example of how architecture can connect the past with the future.

REFERENCES

1. United Nations Human Settlements Programme (UN-Habitat). (2020). World Cities Report 2020: The Value of Sustainable Urbanization. UN-Habitat.
2. El-Sheshtawy, Y. (2019). Adaptive reuse and urban regeneration in the Middle East. Cities, 95, 102391. https://doi.org/10.1016/j.cities.2019.102391
3. Koch, N., & Valiyev, A. (2015). Urban development in Central Asia: The politics of modernization. Eurasian Geography and Economics, 56(4), 493–510. https://doi.org/10.1080/15387216.2015.1082263
4. OECD. (2020). Green Cities in Uzbekistan. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264194630-en
5. Salikhova, D. (2021). Climate-responsive housing in Uzbekistan: Lessons from traditional mahallas. Journal of Architectural Research, 12(2), 55–70.
6. Zhang, X., Shen, L., & Wu, Y. (2011). Green strategy for gaining competitive advantage in housing development: A China study. Journal of Cleaner Production, 19(2–3), 157–167. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2010.08.005
7. World Bank. (2022). Uzbekistan: Toward Sustainable Urban Development. The World Bank Group.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

HEALING ARCHITECTURE: HOW SPACES SHAPE OUR MIND AND HEALTH

Mirhamidova Ezoza
Ajou University in Tashkent, Republic of Uzbekistan,
(Third-year student, enrolled in the
Faculty of Architecture)
E-mail: mirhamidovaezoza@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067431

Abstract. *People often perceive architecture as a simple box in which they live or work. A home protects us from rain, heat in summer, or cold in winter. It creates a sense of safety and comfort. An office provides a place to carry out professional duties, while a hospital exists for treatment and recovery. Consequently, every building has its assigned function.*

However, beyond these utilitarian purposes, architecture plays a much deeper role. It shapes our inner state and feeling. For instance: walls can either confine or inspire, light may heal or exhaust and the layout of a space can influence not only how we behave ourselves, but also how healthy we feel. Additionally, a building that seems comfortable to one group may at the same time be inaccessible to people with disabilities. Even the colors chosen for an interior subtly affect our mood, feelings and emotional balance. This article examines the relationship of psychology and architecture, and their impact on human health.

Key words: *Healing architecture, colors, disabled people, environmental psychology, health, therapeutic design, inclusive design, human-centered architecture.*

Introduction. In contemporary life, individuals spend nearly ninety percent of their lives indoors: at home, in the workplace, at school, in hospitals, or countless other built environments. These environments continuously affect us on physical, emotional and psychological levels. Thoughtful design can alleviate stress and promote balance, whereas poorly conceived environments may generate discomfort or even harm. For example, natural light is recognized as restorative, while insufficient lighting often results in fatigue and irritability. Open and spacious interiors are commonly associated with freedom and ease, while confined or narrow areas may trigger unease or even phobic reactions.

Consequently, architecture must be understood as more than the construction of walls and roofs. It functions as an active force that shapes patterns of behavior, influences social interaction, and contributes directly to human well-being. To recognize and explore this connection is an essential step toward improving the quality of everyday life.

Discussion:

